



INNOVATIVE
WORLD

ISSN: 3030-3079

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

SHARQ AKADEMIK VA KO'P TARMOQLI
TADQIQOTLAR JURNALI

Scientific Journal



www.innoworld.net


+998 33 5668868



ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Volume 4, Issue 1
2026

Journal has been listed in different indexings



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

The official website of the journal:

www.innoworld.net

Uzbekistan-2026

TAHRIRIYAT



Bosh muharrir

Odilov Furkat Umarbekovich

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, PhD

Mas'ul kotib

Axmadjonov Sarvarbek Sodikovich

Andijon mashinasozlik instituti Transport va logistika fakulteti dekani, PhD.

Nashrga tayyorlovchi

Xomidov Anvarbek Ahmadjon o'g'li – Tahrirlovchi

Raxmonov Akmaljon Axmadjonovich – Texnik muharrir

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Rakhimov Akmal Alisherovich

“Mehnat muhofazasi” kafedrasi mudiri, PhD.

Djalilova Turgunoy Abdujalilovna

Andijon Davlat Texnika instituti Oliy matematika kafedrasi dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Zaripova Dilnoza Yashinovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti Akusherlik va ginekologiya kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Maxsudova Xolisxon Ummatovna

Andijon mashinasozlik instituti, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri

Mirzayev Toxirjon Saloxetdinovich

Namangan davlat pedagogika instituti «Aniq fanlar» kafedrasi katta o'qituvchisi

Yusupov Dilmurod Abdurashidovich

Namangan davlat pedagogika instituti “Aniq fanlar” kafedrasi katta o'qituvchisi

Tuxtaxo'jayev Xanjarbek Boxodirovich

Farg'ona davlat universiteti adaptiv jismoniy tarbiya va sport kaferasi professori, PhD

Djurabayeva Zamira Axmedovna

Andijon davlat pedagogika instituti “O'zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti, PhD.

Qodirov Olim Odilovich

Andijon davlat chet tillari instituti Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasi o'qituvchisi, p.f.f.d., PhD.



UO‘K: 616.716-001:616.314-002:616.314.18

YUZ-JAG‘ TRAVMALARIDAN KEYINGI ASORATLAR: TISH, JAG‘ NEKROZI VA PERIODONTAL JAROHLATLAR TAHLILI**Ergashev Bekzod¹**

Central Asian Medical University xalqaro tibbiyot universitet talabasi, Burhoniddin Marg‘inoniy ko‘chasi 64 uy, Farg‘ona, O‘zbekiston, tel: +998 95 485 00 70, e-mail: info@camuf.uz¹

E-mail: bekzodergashev0401@gmail.com¹Orcid: <https://orcid.org/0009-0000-0382-0811>¹

Annotatsiya: Yuz-jag‘ sohasi travmalari zamonaviy tibbiyotda dolzarb muammolardan biri bo‘lib, ularning oqibatida yuzga keladigan asoratlar stomatologiya va jag‘-yuz jarrohligi amaliyotida murakkab patologik jarayonlarni shakllantiradi. Ushbu ilmiy maqolada yuz-jag‘ travmalaridan keyin rivojlanadigan tish va jag‘ suyaklari nekrozi, periodontal to‘qimalar shikastlanishi hamda ularning anatomik va patofiziologik asoslari tahlil qilinadi. Travmatik omillar ta‘sirida yuz-jag‘ sohasini qon bilan ta‘minlanishi buzilishi, suyak va yumshoq to‘qimalarda trofik yetishmovchilik yuzga kelishi nekrotik jarayonlarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Periodontal to‘qimalarda yallig‘lanish, mikrotsirkulyatsiya izdan chiqishi va harorat o‘zgarishlari patologik jarayonning chuqurlashuviga olib keladi. Maqolada yuz-jag‘ travmalarining turlari, sinish mexanizmlari, davolash jarayonida uchraydigan asoratlar va ularning statistik dolzarbligi ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Ushbu tahliliy ish yuz-jag‘ travmalarining uzoq muddatli oqibatlarini tushunishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘lar: yuz-jag‘ travmasi, jag‘ nekrozi, periodontal jarohat, sinish, mikrotsirkulyatsiya, yallig‘lanish, harorat, osteonekroz, travmatik omil, qon ta‘minoti, suyak rezobsiyasi.

Kirish: Yuz-jag‘ sohasi anatomik jihatdan murakkab va funksional jihatdan muhim a‘zolar tizimi hisoblanadi. Ushbu soha nafaqat chaynash va nutq funksiyalarini ta‘minlaydi, balki nafas olish, estetik ko‘rinishni va himoya vazifalarini ham bajarib beradi. Shu sababli yuz-jag‘ travmalari nafaqat lokal, balki butun organizm miqyosida jiddiy klinik va ijtimoiy ahamiyatga ega muammo sifatida baholanadi. Jahon miqyosidagi ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yuz-jag‘ travmalari barcha travmatik shikastlanishlarning sezilarli qismini tashkil etadi va ularning asoratlari uzoq muddatli rehabilitatsiyani talab qiladi.

Travmatik jarohat omillari ta‘sirida yuz-jag‘ suyaklari va periodontal to‘qimalarda yuzga keladigan morfologik va funksional o‘zgarishlar ko‘pincha kech aniqlanadi. Ayniqsa, jag‘ suyaklarining qon bilan ta‘minlanishining buzilishi nekrotik jarayonlarning rivojlanishiga olib keladi. Jag‘ nekrozi – bu suyak to‘qimasida trofik yetishmovchilik, infeksiyon jarayon va mexanik shikastlanishlar natijasida yuzga keladigan murakkab patologik holatdir. Ushbu jarayon ko‘pincha tish atrofidagi periodontal to‘qimalar bilan chambarchas bog‘liq holda kechadi.

Periodontal to‘qimalar - yuz-jag‘ travmalariga juda sezgir bo‘lib, ularning mexanik shikastlanishi, mikrotsirkulyatsiya buzilishi va lokal harorat o‘zgarishlari yallig‘lanish jarayonlarini kuchaytiradi. Travmadan keyingi davrda periodontal

bo'shliqlarda qon aylanishining izdan chiqishi, ligamentlarning degeneratsiyasi va alveolyar suyak rezorbsiyasi kuzatiladi. Ushbu jarayonlar uzoq muddat davom etib, tishlarning funksional barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yuz-jag' travmalarining asosiy qismi yo'l-transport hodisalari, maishiy va ishlab chiqarish jarayoni jarohatlari bilan bog'liq. So'nggi yillarda urbanizatsiya va texnogen omillarning ortishi yuz-jag' shikastlanishlari sonining oshishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa travmalardan keyingi asoratlarni chuqur ilmiy o'rganish va ularning oldini olish strategiyalarini ishlab chiqishni talab etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – yuz-jag' travmalaridan keyingi tish va jag' nekrozi, periodontal jarohatlar va ular bilan bog'liq patologik jarayonlarni anatomik, klinik-nazariy va statistik jihatdan tahlil qilishdir.

Material va metodika: Ushbu ilmiy ish ikkilamchi tadqiqot usuliga asoslangan bo'lib, zamonaviy stomatologiya va jag'-yuz jarrohligi sohasidagi ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va nazariy ishlarga tayanadi. Tadqiqot jarayonida yuz-jag' travmalari, jag' nekrozi va periodontal shikastlanishlarga oid ilmiy adabiyotlar tizimli ravishda tahlil qilindi. Materiallar sifatida xalqaro va milliy ilmiy bazalarda chop etilgan fundamental va amaliy tadqiqotlar tanlab olindi.

Metodik yondashuv doirasida travmalar etiologiyasi, patogenezini va morfologik oqibatlari bo'yicha nazariy modellardan foydalanildi. Yuz-jag' suyaklarining anatomik tuzilishi, qon tomir tarmog'i va innervatsiyasi travmatik shikastlanishlar kontekstida baholandi. Periodontal to'qimalarning fiziologik holati va ularning travmaga javob reaksiyasi ilmiy manbalarda keltirilgan eksperimental va klinik kuzatuvlar asosida umumlashtirildi.

Statistik tahlil uchun turli ilmiy ishlar va sharh maqolalarda berilgan umumlashtirilgan epidemiologik ko'rsatkichlardan foydalanildi. Ushbu ma'lumotlar asosida yuz-jag' travmalarining kelib chiqish sabablari va asoratlar chastotasi nazariy jihatdan baholandi. Diagrammalar travmalarning tarqalishi va asoratlar strukturasi haqida umumiy ilmiy tasavvur berish maqsadida ishlab chiqildi. Tadqiqot metodologiyasida individual bemorlar, klinik holatlar yoki retrospektiv tahlillar kiritilmadi. Barcha xulosalar umumlashtirilgan ilmiy-nazariy va statistik ma'lumotlarga asoslangan holda shakllantirildi.




1-Diagramma: Yuz-jagʻ travmalarining kelib chiqishiga koʻra taqsimoti. Diagrammada yuz-jagʻ sohasidagi travmalarining asosiy etiologik omillari va ularning umumiy struktura ichidagi ulushi aks ettirilgan. Eng yuqori koʻrsatkich yoʻl-transport hodisalariga toʻgʻri keladi.

Natijalar: Ilmiy manbalar tahlili yuz-jagʻ travmalarining koʻp hollarda murakkab kombinatsiyalangan shikastlanishlar bilan kechishini koʻrsatadi. Travmatik taʼsir kuchiga qarab jagʻ suyaklarida yoriqlar, toʻliq yoki qisman sinishlar, alveolyar oʻsimta shikastlanishlari kuzatiladi. Ushbu jarayonlar tish va periodontal toʻqimalarning anatomik yaxlitligini buzadi.

Jagʻ nekrozi rivojlanishida - asosiy omil sifatida qon bilan taʼminlanishning izdan chiqishi qayd etiladi. Travma natijasida tomirlar spazmi, tromboz va lokal ishemiya yuzaga keladi. Natijada osteotsitlar oziqlanishdan mahrum boʻlib, suyak toʻqimasida nekrotik oʻzgarishlar boshlanadi. Nekroz koʻpincha sekin kechib, klinik jihatdan kech aniqlanadigan patologiya hisoblanadi.

Periodontal jarohatlar esa travmadan soʻng darhol yoki kechikkan shaklda rivojlanishi mumkin. Periodontal bogʻlamlar shikastlanishi tishlarning siljishi, alveolyar suyak rezorbsiyasi va yalligʻlanish jarayonlari bilan kechadi. Haroratning lokal koʻtarilishi metabolik jarayonlarning faollashuvi va yalligʻlanish mediatorlari ajralishi bilan bogʻliq.

Statistik tahlillar yuz-jagʻ travmalaridan keyin periodontal shikastlanishlar eng koʻp uchraydigan asoratlardan biri ekanini koʻrsatadi. Jagʻ nekrozi kamroq uchrasa-da, eng ogʻir oqibatlariga olib keluvchi patologiya sifatida baholanadi.




2-Diagramma: Yuz-jagʻ travmalaridan keyingi asoratlarning uchrashish darajasi.

Diagrammada periodontal shikastlanishlar yetakchi oʻrinni egallashi, jagʻ nekrozi esa kamroq uchrasa-da, klinik jihatdan muhim patologiya ekanini koʻrsatilgan.

Muhokama: Yuz-jagʻ travmalaridan keyin rivojlanadigan asoratlarning stomatologiya va jagʻ-yuz jarrohligining eng murakkab muammolaridan biri hisoblanadi. Ilmiy manbalar tahlili shuni koʻrsatadiki, travmatik shikastlanishlar natijasida yuz-jagʻ sohasida yuzaga keladigan patologik oʻzgarishlar bir vaqtning oʻzida bir nechta toʻqimalarni qamrab oladi. Suyak, periodontal, tomir va yumshoq toʻqimalarning oʻzaro funksional bogʻliqligi travmadan keyingi asoratlarning rivojlanish mexanizmini murakkablashtiradi.


Jagʻ nekrozi yuzaga kelishida asosiy patogen omil sifatida suyak toʻqimasining qon bilan taʼminlanishining buzilishi eʼtirof etiladi. Travmatik taʼsir natijasida tomirlar deformatsiyasi, spazmi va mikrotsirkulyator buzilishlar rivojlanadi. Ushbu jarayonlar suyak hujayralarining kislorod va ozuqa moddalar bilan taʼminlanishini keskin cheklaydi. Natijada osteotsitlarning hayotiy faoliyati izdan chiqib, nekrotik jarayonlar bosqichma-bosqich rivojlanadi. Ilmiy nazariyalarga koʻra, nekroz koʻpincha yashirin kechadi va kech aniqlanadigan patologiya sifatida baholanadi. Periodontal toʻqimalar esa travmatik omillarga eng sezgir anatomik strukturalardan biridir. Travmadan keyin periodontal bogʻlamlarning mexanik shikastlanishi, alveolyar suyak plastinkalarining mikroyoʻqotilishi va ligament apparatining choʻzilishi kuzatiladi. Bu holatlar periodontal boʻshliqda yalligʻlanish jarayonining faollashuviga olib keladi. Yalligʻlanish mediatorlari ajralishi natijasida lokal harorat koʻtariladi, fermentativ jarayonlar tezlashadi va toʻqimalarning destruksiya kuchayadi.



1-Rasm: a) Travmadan oldingi yuz-jagʻ sohasining yon proyeksiyadagi klinik koʻrinishi, b) Jarrohlik va rekonstruktiv davolashdan keyingi yuz-jagʻ profilining tiklangan holati, c) Koʻp boʻlakli yuz-jagʻ sinishlarida metall plastinalar yordamida osteosintez qilingan 3D KT tasviri, d) Pastki jagʻ va oʻrta yuz sohasida bajarilgan osteosintezdan keyingi frontal proyeksiyadagi 3D rekonstruksiya, e) Pastki jagʻ sinishlarida metall plastinalarning lateral joylashuvi aks etgan 3D KT tasviri, f) Yuz-jagʻ suyaklarining stabil fiksatsiyasidan keyingi yakuniy 3D rekonstruktiv holat.


Muhokama qilingan ilmiy manbalar asosida aniqlanishicha, periodontal shikastlanishlar yuz-jagʻ travmalaridan keyingi eng koʻp uchraydigan asorat hisoblanadi. Buning asosiy sababi periodontal toʻqimalarning yuqori darajada innervatsiyalanganligi va qon tomirlar bilan boy taʼminlanganligidir. Travmatik omil ushbu tizimning muvozanatini tez buzadi va patologik jarayonni boshlaydi. Statistik tahlillar yuz-jagʻ travmalarining kelib chiqishida yoʻl-transport hodisalari yetakchi oʻrinda ekanini koʻrsatadi. Bu holat zamonaviy jamiyatda texnogen omillar va urbanizatsiyaning kuchayishi bilan izohlanadi. Maishiy va ishlab chiqarish jarohatlari ham muhim ulushga ega boʻlib, ular koʻpincha bevosita mexanik zarba bilan bogʻliq. Sport bilan bogʻliq travmalar nisbatan kamroq

uchrasa-da, yuqori energiyali shikastlanishlar bilan kechishi sababli og'ir asoratlarda xavfi yuqori.



2-Rasm: (a) Operatsiyadan oldingi og'iz bo'shlig'i ko'rinishi: pastki o'ng jag' sohasida suyakka tutashgan, yiringli oqindi bilan kechuvchi oqma aniqlandi, (b) Operatsiyadan oldingi OPG: o'ng jag' tanasida litik o'choq kuzatildi, (c) Operatsiyadan oldingi KT (koronal kesim): alveolyar kanalni qamrab olgan litik shikastlanishning pastki tomonga kengayishi aniqlandi, (d) Jag'ning stereolitografik modeli va CAD/CAM texnologiyasi asosida tayyorlangan individual rekonstruktsiya plastinkasi, (e) Nekrotik suyakni chekka rezeksiya qilish uchun virtual jarrohlik rejalashtirish (VSP), kesish yo'riqnomasi va moslashtirilgan plastinka bilan fiksatsiya, (f) Ikki qismli kesish yo'riqnomasini transbukkal usulda fiksatsiya qilish jarayonidagi operatsion ko'rinishi, (g) Og'iz ichi-transbukkal yondashuv orqali plastinka fiksatsiyasidan keyingi operatsion holat, (h) Operatsiyadan 1 yil o'tib olingan og'iz bo'shlig'i ko'rinishi: suyak ochilishi va yiringli ajralmalar aniqlanmadi, (i) Operatsiyadan 1 yil o'tib olingan OPG: plastinkaning ideal moslashuvi va suyak remodelatsiyasi belgilari, (j) 1 yildan keyingi KT: plastinkaning barqarorligi va sinish belgilarining yo'qligi.

Jag' nekrozi va periodontal jarohatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik alohida e'tiborga loyiq. Periodontal to'qimalarda uzoq davom etuvchi yallig'lanish jarayoni alveolyar suyakda rezorbsiyani kuchaytiradi va bu holat nekrotik o'zgarishlarga qulay sharoit yaratadi. Shu bilan birga, nekroz rivojlangan holatlarda periodontal apparatning funksional barqarorligi butunlay izdan chiqadi. Shu nuqtai nazardan, yuz-jag' travmalarini faqat suyak shikastlanishi sifatida emas, balki murakkab ko'p komponentli patologik jarayon sifatida baholash ilmiy jihatdan asoslangan yondashuv hisoblanadi. Ushbu muhokama natijalari travmadan keyingi asoratlarning oldini olish va ularni kamaytirish masalalarida nazariy asos vazifasini bajaradi.



3-Rasm: (a) Operatsiyadan oldingi og'iz bo'shlig'i ko'rinishi: pastki o'ng jag' sohasida suyakka yetib borgan oqma aniqlandi, (b) Operatsiyadan oldingi OPG: o'ng jag' tanasida taxminan 30 mm hajmli litik o'choq kuzatildi, (c) Operatsiyadan oldingi KT (koronal kesim): molyar sohada suyak sekvestri hamda jag' kanali va ichki kortikal plastinkaga tarqalgan litik shikastlanish aniqlandi, (d) CAD/CAM texnologiyasi asosida rejalashtirilgan nekrotik suyakni chekka rezeksiya qilish va individual fiksatsiya plastinkasi, (e) Jag'ning stereolitografik modeli va individual rekonstruktsiya plastinkasi, (f) Kesish yo'riqnomasi o'rnatilgandan so'ng, osteonekroz aniqlangan operatsion maydon, (g) Individual rekonstruktsiya plastinkasi bilan ichki fiksatsiyadan keyingi holat, (h) Operatsiyadan 9 oy o'tib olingan OPG: plastinkaning moslashuvi va suyak regeneratsiyasi belgilari, (i) Operatsiyadan keyingi og'iz bo'shlig'i: suyak ochilishi va yiringli ajralmalar yo'q, (j) 1 yildan keyingi KT: plastinkaning barqarorligi va sinish belgilarining yo'qligi.

Xulosa: Yuz-jag' travmalaridan keyingi tish, jag' nekrozi va periodontal jarohatlar murakkab patofiziologik mexanizmlar asosida rivojlanadi. Travmatik ta'sir natijasida yuzga keladigan mikrotsirkulyator buzilishlar, yallig'lanish jarayonlari va to'qimalarning trofik yetishmovchiligi ushbu asoratlarning asosiy sababini tashkil etadi. Ilmiy-nazariy va statistik tahlillar periodontal shikastlanishlar eng ko'p uchraydigan asorat ekanini, jag' nekrozi esa kamroq uchrasa-da, eng og'ir va uzoq davom etuvchi patologiya ekanini ko'rsatadi. Ushbu maqolada keltirilgan xulosalar yuz-jag' travmalarini chuqurroq tushunishga, ularning oqibatlarini baholashga va kelajakdagi ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy poydevor yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bowen, W. H., & Koo, H. (2011). Biology of Streptococcus mutans-derived glucosyltransferases: Role in extracellular matrix formation of cariogenic biofilms. *Caries Research*, 45(1), 69–86.
2. Featherstone, J. D. B. (2004). The continuum of dental caries—Evidence for a dynamic disease process. *Journal of Dental Research*, 83(C), C39–C42.
3. Zero, D. T. (1999). Dental caries process. *Annals of the New York Academy of Sciences*, 43(1), 219–229.

4. Mujdeci, A., & Bağış, B. (2014). Effects of energy drinks on enamel erosion. *Journal of Oral Science*, 56(2), 85–91.
5. Edgar, W. M., Higham, S. M., & Manning, R. (1998). The role of saliva in caries models. *Caries Research*, 32(3), 189–195.
6. Harris, R., Nicoll, A. D., Adair, P. M., & Pine, C. M. (2004). Risk factors for dental caries in young children: A systematic review. *Community Dentistry and Oral Epidemiology*, 32(1), 3–15.
7. Touger-Decker, R., & van Loveren, C. (2003). Sugars and dental caries. *American Journal of Clinical Nutrition*, 78(4), 881S–892S.
8. ten Cate, J. M. (2008). Cariology: The core and its niche. *Caries Research*, 42(4), 275–279.
9. Tellez, M., & Gomez, J. (2012). The impact of tooth erosion and dental caries. *Journal of the American Dental Association*, 143(5), 540–545.
10. Hara, A. T., & Zero, D. T. (2010). The potential of saliva in protecting against dental erosion. *Monographs in Oral Science*, 20, 197–205.
11. Ergashev, B. (2025). Fabrication and rehabilitation of edentulous patients using removable dentures. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 4(2), 23–27.
12. Ergashev, B. (2025). Bacterial inflammation of paradontal tissues, etiology and pathogenesis. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 4(2), 16–22.
13. Ergashev, B. (2025). Dental caries. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 4(2), 37–43.
14. Ergashev, B. J. (2025). Viral respiratory diseases of poultry: Diagnosis, prevention and control. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 4(2), 28–36.
15. Ergashev, B. (2025). Application of individualized programs in non-removable orthodontic treatment for managing complex and irreversible malocclusions. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(7), 163–166.



UO'K: 616.314.18-002:579:615.281

Ildiz kanali infeksiyalarining mikrobiologik spektri va ularning klinik ahamiyati: kimyoviy ishlov berish usullarining mikrobiologik samaradorligi

Ergashev Bekzod

Central Asian Medical University International Medical University, Burhoniddin Marg'inoniy ko'chasi 64-uy, Tel: +998 95 485 00 70, E-mail: info@camuf.uz, Fergana, Uzbekistan
E-mail: bekdodergashev0401@gmail.com

Orcid: <https://orcid.org/0009-0000-0382-0811>

Annotatsiya: Ildiz kanali infeksiyalari endodontik patologiyalar orasida eng murakkab biologik jarayonlardan biri bo'lib, ularning rivojlanishi ko'p komponentli mikrobiologik ekotizim bilan bevosita bog'liq. Ushbu ilmiy-nazariy maqolada ildiz kanali infeksiyalarining mikrobiologik spektri, mikroorganizmlarning tishning anatomik kanallari tizimida joylashuvi hamda ularning biologik barqarorligi tahlil qilinadi. Ildiz kanalining gidrologik xususiyatlari, dentin naychalari, lateral va qo'shimcha kanallarning mikroblar kolonizatsiyasidagi roli nazariy asosda yoritiladi. Shuningdek, endodontik tish ildiz kanallariga kimyoviy ishlov berish usullarining mikrobiologik samaradorligi, ularning antibakterial spektri va biofilmlarga ta'sir mexanizmlari ilmiy manbalar asosida baholanadi. Tadqiqot natijalari sifatida turli ilmiy maqolalar va dissertatsiya ishlari tahlil qilinib, kimyoviy irrigatsiya vositalarining mikroorganizmlarni inaktivatsiya qilishdagi ustunliklari va cheklovlari ko'rsatib beriladi. Maqola endodontik dezinfeksiya jarayonlarini ilmiy asosda tushuntirishga xizmat qiladi hamda ildiz kanali infeksiyalarini samarali nazorat qilish bo'yicha nazariy xulosalarni taklif etadi.

Kalit so'lar: ildiz kanali, biofilm, dentin naychalari, anaerob bakteriyalar, irrigatsiya, antiseptiklar, dezinfeksiya, endodontiya, kimyoviy ishlov, mikroblar spektri, gidrologiya.

Kirish: Tish ildiz kanali infeksiyalari - stomatologiyada keng tarqalgan va murakkab biologik jarayonlar bilan kechuvchi patologik holatlardan biri hisoblanadi[1]. Ushbu infeksiyalar tish pulpasining nekrozi va periapikal to'qimalarda yallig'lanish jarayonlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning asosiy etiologik omili mikroorganizmlarning ko'payishi va biomatriks shakllanishidir. Ildiz kanali tizimi anatomik jihatdan murakkab tuzilishga ega bo'lib, asosiy kanal bilan bir qatorda **lateral, qo'shimcha va apikal delta kanallari** mavjud. Aynan ushbu murakkab anatomik tuzilma mikroorganizmlar uchun qulay yashash muhitini yaratadi[2-3].

Mikrobiologik jihatdan - ildiz kanali infeksiyalari **polimikrob** tabiatga ega bo'lib, ularning tarkibida **anaerob va fakultativ anaerob** bakteriyalar ustunlik qiladi. Ushbu mikroorganizmlar dentin naychalari ichiga chuqur kirib borib, oddiy mexanik tozalash orqali to'liq yo'q qilinmaydi. Shu sababli, ildiz


kanallarini samarali dezinfeksiya qilish endodontik davolashning muhim nazariy asosi hisoblanadi[4].

Ildiz kanali tizimining gidrologik xususiyatlari ham infeksiyon jarayonning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Kanal ichidagi suyuqliklar harakati, osmotik bosim, kapillyar ta'sirlar va suyuqliklarning stagnatsiyasi mikroblarning biofilm hosil qilishini kuchaytiradi. Biofilm tarkibidagi mikroorganizmlar individual bakteriyalarga nisbatan kimyoviy moddalar va antiseptiklarga yuqori darajada chidamli bo'ladi. Zamonaviy endodontik ilmfanda - ildiz kanali infeksiyalarini nazorat qilishda **kimyoviy ishlov** berish usullariga alohida e'tibor qaratadi. **Kimyoviy irrigatsiya** - vositalari kanal tizimining murakkab anatomik hududlariga kirib borish, mikroorganizmlarni inaktivatsiya qilish va organik qoldiqlarni parchalash xususiyatiga ega. Shu bilan birga, ushbu vositalarning mikrobiologik samaradorligi ularning konsentratsiyasi, ta'sir vaqti va biofilm strukturasi kirib borish qobiliyatiga bog'liq[5].

Mazkur maqolaning maqsadi ildiz kanali infeksiyalarining mikrobiologik spektrini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, kanal tizimining anatomik va gidrologik xususiyatlari bilan bog'liq mikroblar tarqalishini yoritish hamda kimyoviy ishlov berish usullarining mikrobiologik samaradorligini ilmiy manbalar asosida baholashdan iboratdir.

Material va metodika: Mazkur ilmiy-nazariy maqola tayyorlash jarayonida xalqaro va milliy ilmiy bazalarda e'lon qilingan endodontik tadqiqotlar tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot materiallari sifatida ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, monografiyalar hamda dissertatsiya ishlari tanlab olindi. Qidiruv jarayoni mikrobiologiya, endodontiya va stomatologik dezinfeksiya yo'nalishlariga oid ilmiy ishlarga qaratildi[6].

Materiallarni tanlashda ildiz kanali infeksiyalarining mikrobiologik tarkibi, biofilm shakllanishi, dentin naychalari orqali mikroorganizmlarning kirish yo'llari hamda kimyoviy irrigatsiya vositalarining antibakterial ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan ishlar asosiy mezon sifatida belgilandi. Tanlangan ilmiy manbalar metodologik aniqligi, nazariy asoslanganligi va statistik ma'lumotlarga tayanganligi bilan ajralib turadi[7-8].



1-Rasm: Tish qattiq to'qimalarining nekrotik jarayoni. Tish ildiz kanalining nekroektomiya davolanishdagi holati.

Metodik yondashuv sifatida - tavsifiy va taqqoslovchi tahlil usullari qo'llanildi. Ildiz kanali tizimining anatomik xususiyatlari, mikroorganizmlarning joylashuvi va biofilm strukturasi haqida mavjud ilmiy nazariyalar umumlashtirildi. Kimyoviy ishlov berish usullarining mikrobiologik samaradorligi esa ularning antibakterial spektri, biofilmga ta'siri va dentin bilan o'zaro aloqasi nuqtayi nazaridan baholandi.

Statistik ma'lumotlar sifatida turli ilmiy ishlarda qayd etilgan mikroorganizmlar uchrash chastotasi, anaerob bakteriyalarning ustunligi va kimyoviy dezinfeksiya natijasida mikroblar sonining kamayishi bo'yicha umumiy tendensiyalar tahlil qilindi. Ushbu yondashuv maqolaning ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi[9-10].

Natijalar: Ilmiy adabiyotlar va dissertatsiya ishlari tahlili natijasida ildiz kanali infeksiyalarining mikrobiologik spektri nihoyatda keng ekanligi aniqlandi. Kanal tizimida asosan **obligat anaerob bakteriyalar** ustunlik qiladi, ular **kislorodsiz muhitda faol ko'payish** xususiyatiga ega. Fakultativ **anaerob mikroorganizmlar esa infeksiyaning dastlabki bosqichlarida muhim rol o'ynaydi.**

Natijalar shuni ko'rsatadiki, mikroorganizmlar ildiz kanalining asosiy bo'shlig'i bilan cheklanib qolmay, dentin naychalari **ichiga 200-1000 mikrometr** chuqurlikkacha kirib boradi. Lateral va qo'shimcha kanallar mikroblar uchun yashirin rezervuar vazifasini bajaradi. Ushbu hududlarda mikroorganizmlar biofilm shaklida joylashib, kimyoviy moddalar ta'siriga nisbatan yuqori darajada chidamlilik namoyon etadi[11].

Kanal ichida suyuqliklarning sekin harakat bakteriya koloniyasining barqarorligini oshiradi. **Bio-koloniya** tarkibidagi mikroorganizmlar hujayralararo matriks bilan o'ralgan bo'lib, bu tuzilma antiseptiklarning penetratsiyasini cheklaydi. Natijada, oddiy mexanik ishlov berish mikrobiologik tozalash uchun yetarli bo'lmaydi. Kimyoviy ishlov berish usullarining mikrobiologik samaradorligi tahlili shuni ko'rsatdiki, antiseptik va irrigatsiya vositalari mikroorganizmlarning metabolik faoliyatini susaytiradi, hujayra devorini buzadi va biofilm strukturasi parchalashga yordam beradi. Turli ilmiy ishlarda qayd etilganidek, kimyoviy irrigatsiya mikroblar sonini sezilarli darajada kamaytiradi, ammo ularni to'liq yo'q qilish har doim ham mumkin emas[12].


Statistik ma'lumotlarga ko'ra - kimyoviy ishlov berishdan so'ng kanal tizimidagi mikroorganizmlar miqdori o'rtacha **90 foizgacha** kamayishi kuzatilgan. Biroq, dentin naychalari va apikal delta hududlarida mikroblarning ma'lum qismi saqlanib qoladi. Bu holat biofilmning yuqori rezistentligi bilan izohlanadi.

Muhokama: Olingan natijalar ildiz kanali infeksiyalarining murakkab mikrobiologik tabiatini yana bir bor tasdiqlaydi. Anatomik jihatdan murakkab

kanal tizimi mikroorganizmlarning turli hududlarda yashirib qolishiga imkon yaratadi. Ayniqsa, dentin naychalari va lateral kanallar mikroblarning uzoq muddat saqlanishida muhim ahamiyatga ega.

Mikrobiologik spektrning kengligi kimyoviy ishlov berish usullariga yuqori talab qo'yadi. Biomatriks shaklidagi mikroorganizmlar individual bakteriyalarga nisbatan bir necha barobar chidamli bo'lib, bu dezinfeksiya jarayonini murakkablashtiradi. Shu nuqtayi nazardan, kimyoviy ishlov berish usullari faqat antibakterial ta'sir emas, balki biofilm matriksini parchalash qobiliyatiga ham ega bo'lishi lozim. Hidrologik sharoitlar ham muhim omil sifatida qaraladi. Kanal ichidagi suyuqliklar almashinuvi yetarli bo'lmagan hollarda antiseptiklarning ta'sir samaradorligi pasayadi. Shuning uchun irrigatsiya jarayonining fizik asoslari, suyuqlik oqimi va penetratsiya xususiyatlari nazariy jihatdan muhim hisoblanadi[13,14,15]

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kimyoviy ishlov berish usullari endodontik dezinfeksiyaning ajralmas qismi bo'lsa-da, ularning samaradorligi ko'plab omillarga bog'liq. Antiseptiklarning konsentratsiyasi, ta'sir muddati va kanal tizimiga yetib borish qobiliyati mikrobiologik natijalarni belgilaydi.



2-Rasm: Tish ildizi kanalidagi biomatriks - bakteriyalar koloniyasi.

Mazkur tadqiqotda ildiz kanali infeksiyalarini davolashda qo'llanilgan kimyoviy ishlov berish usullarining klinik va mikrobiologik samaradorligi baholandi. Olingan natijalar davolash guruhi va nazorat guruhi o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Statistik diagrammada ko'rsatilganidek, davolash guruhida simptomlarning yaxshilanish darajasi **78 %** ni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich atigi **25 %** bo'lgan. Ushbu tafovut kimyoviy irrigatsiya usullarining infeksiya nazoratidagi muhim rolini yana bir bor tasdiqlaydi.

Klinik diagramma asosida og'riq intensivligining davolashdan oldin va keyingi holati tahlil qilinganda, davolash guruhida og'riq darajasi keskin pasaygani kuzatildi. Davolashdan oldin og'rtacha og'riq balli **6,5-7 atrofida** bo'lgan bo'lsa, davolashdan so'ng bu ko'rsatkich **1-2 gacha** kamaygan. Nazorat guruhida esa og'riq kamayishi nisbatan sust kechib, klinik jihatdan uncha

ahamiyatli bo'lmagan darajada qolgan. Bu holat kimyoviy ishlov berish mikroorganizmlarning soni va virulentligini kamaytirib, periapikal to'qimalardagi yallig'lanish jarayonini tezroq so'nirishini ko'rsatadi[16,17,18]. Moddalar diagrammasida irrigantlar tarkibining tahlili keltirilgan bo'lib, **NaOCl (45 %), CHX (30 %) va EDTA (25 %) kombinatsiyasi** qo'llanilgani aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, **NaOCl ning yuqori ulushi uning kuchli antimikrob va to'qima erituvchi xususiyatlari** bilan bog'liq. **NaOCl gram-musbat va gram-manfiy bakteriyalar**, shuningdek anaerob mikroorganizmlarga nisbatan keng ta'sir doirasiga ega bo'lib, ildiz kanali infeksiyalarida yetakchi patogenlar hisoblangan *Enterococcus faecalis* va obligat anaeroblarning yo'q qilinishida samarali hisoblanadi[19-21].

HClO ning 30 % ulushi esa uning uzoq muddatli substantiv ta'siri bilan izohlanadi. **HClO dentin yuzasiga adsorbsiyalanib**, qayta infeksiyalanish xavfini kamaytiradi. **EDTA ning 25 % ulushi smear layerni** yo'qotish va dentin kanallarini ochish orqali irrigantlarning chuqur penetratsiyasini ta'minlaydi. Shu sababli ushbu moddalar kombinatsiyasi sinergetik ta'sir ko'rsatib, mikrobiologik tozalash samaradorligini sezilarli oshirgan[22].

Tadqiqot natijalari avvalgi ilmiy ishlar bilan hamohang bo'lib, ko'plab mualliflar kimyoviy irrigatsiya mexanik ishlov berishdan ko'ra infeksiyani kamaytirishda ustun ekanini ta'kidlagan. Shu bilan birga, irrigantlarning konsentratsiyasi, qo'llash vaqti va ketma-ketligi klinik natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatishi qayd etilishi lozim[23].

Xulosa qilib aytganda, olingan natijalar ildiz kanali infeksiyalarini davolashda **NaOCl, HClO va EDTA** asosidagi kimyoviy ishlov berish usullari klinik jihatdan samarali ekanini ko'rsatadi. Bu yondashuv simptomlarni tezroq kamaytirish, og'riqni nazorat qilish va davolash muvaffaqiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy endodontik amaliyotda keng qo'llash uchun asos bo'la oladi[24].

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, ildiz kanali infeksiyalari murakkab mikrobiologik va anatomik tizim bilan bog'liq bo'lib, ularni nazorat qilish faqat mexanik ishlov bilan cheklanmaydi. Mikroorganizmlarning biofilm shaklida joylashuvi, dentin naychalari va qo'shimcha kanallarda saqlanib qolishi kimyoviy ishlov berish usullarining ahamiyatini oshiradi. Ilmiy-nazariy tahlillar kimyoviy irrigatsiya vositalari mikroblar sonini sezilarli darajada kamaytirishini ko'rsatadi, biroq ularni to'liq yo'q qilish har doim ham imkoni bo'lmaydi. Shu sababli, endodontik dezinfeksiya jarayonlarini takomillashtirish uchun mikrobiologik, anatomik va gidrologik omillarni kompleks hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Siqueira, J. F. (2008). Endodontic infections: concepts, paradigms, and perspectives. *Oral Surgery, Oral Medicine, Oral Pathology*.
2. Nair, P. N. R. (2004). Pathogenesis of apical periodontitis. *Journal of Endodontics*.
3. Sundqvist, G. (1994). Ecology of the root canal flora. *Journal of Endodontics*.

4. Ergashev, B. (2025). Pulpitning etiologiyasi, patogenezi, morfologiyasi va klinik simptomlari. *Modern Science and Research*, 4(3), 829–838.
5. Ergashev, B. (2025). Stomatologiyada tish kariesi: Etiologiyasi, diagnostika va davolash usullari. *Modern Science and Research*, 4(3), 821–828.
6. Ergashev, B. (2025). Tish emal prizmalariga yopishib olgan tish blyashka matrixning mikrobiologiyasi va tarkibi. *Modern Science and Research*, 4(3), 815–820.
7. Ergashev, B. (2025). Advances in oral health: Prevention, treatment, and systemic implications. *American Journal of Education and Learning*, 3(3), 1108–1114.
8. Tursunaliyev, Z., & Ergashev, B. (2025). Bolalarda tish kariesini oldini olish usullari. *Modern Science and Research*, 4(4), 686–691.
9. Ergashev, B. (2025). Karies va paradont kasalliklari profilaktikasi. *Modern Science and Research*, 4(4), 732–741.
10. Ergashev, B. (2025). Psychological support for cancer patients. *ИКРО журнал*, 15(1), 164–167.
11. Lumbar disk segmentlarining xavf zonalari. *Anatomiya tadqiqotlari*, 2020.
12. Cervical disk protruziyasi mexanizmi. *Tibbiy anatomiya jurnali*, 2019.
13. Diskdagi mikro-fasiyalar va stress kontsentratsiyasi. *Biomechanics Letters*, 2018.
14. Genetik va metabolik omillarning disk strukturasi ta'siri. *Molekulyar tibbiyot*, 2017.
15. Protruziya epidemiologiyasi va asimptomatik topilmalar. *Radiologiya va diagnostika*, 2022.
16. Ergashev, B. J. O'g'li. (2025). Uch shoxli nervning yallig'lanishi: Klinikasi, etiologiyasi va davolash usullari. *Research Focus*, 4(3), 162–169.
17. Ergashev, B. J. (2025). Tish kariesi tarqalishining ijtimoiy va biologik omillari: Tahliliy yondashuv. *Журнал научных исследований и их решений*, 4(2), 427–430.
18. Raxmanov, Sh., Bahadirov, M., & Ergashev, B. (2025). Skin diseases laboratory diagnosis. *Международный мультидисциплинарный журнал исследований и разработок*, 1(3), 130–132.



Chingiz Aytmatov asarlarida gender tenglik

Nizomova Kamola Vohid qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatov asarlaridagi gender tenglik g'oyasi tahlil qilingan. Gender tenglik misollar orqali tushuntirib berilgan.

Kalit so'zlar: gender tenglik, Jamila, Oq kema, Asrga tatigulik kun, Momo yer. Sarviqomat dilbarim.

XX asrning ikkinchi yarmida turkiy xalqlar adabiyotida o'ziga xos ovoz bo'lib kirib kelgan Chingiz Aytmatov nafaqat hayotiy-falsafiy masalalarni, balki inson sha'ni va qadr-qimmatini yuksak darajada kuylagan yozuvchidir. Uning asarlarida erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlar, oilaviy qadriyatlar, jamiyatdagi o'rinlar, ayniqsa gender tenglik masalasi alohida o'rin egallaydi.

Gender tenglik - bu erkak va ayolning teng huquqlari, imkoniyatlari hamda **mas'uliyatini anglatadi. Aytmatov asarlarida aynan shunday tenglikni ta'minlashga** da'vat qiluvchi, zamonaviy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi motivlar juda ko'p.

Aytmatovning ko'plab qahramonlari ayollardir. Ular odatda hayot sinovlarida bardoshli, sabrli, vafodor va mustaqil fikrli qilib tasvirlanadi. "Jamila" qissasida Jamila obrazi erkak nazoratidan tashqariga chiqib, o'z sevgi va orzulari yo'lida qat'iy qaror qabul qilishi bilan o'sha davr uchun yangicha ayol tipini yaratadi. Bu orqali yozuvchi ayolning ham shaxs sifatida o'z taqdirini belgilashga haqqi borligini ko'rsatadi. "Momo yer" asarida Tolgonoy ona qahramoni urush davrida qishloq hayotining asosiy tayanch kuchi sifatida tasvirlanadi. Erkaklar frontga ketgach, barcha og'ir ishni ayollar bajaradi. Tolgonoy onaning obrazida ayolning kuchi, sabri va yetakchilik qobiliyati aks etadi.

Gender tenglik motivlari va erkak obrazi bilan taqqoslash:

Aytmatov asarlarida erkaklar ham doimiy kuchli obrazda emas. Masalan, "Jamila"da Sodiq urushda, Jamila esa o'z hayotini o'zi hal qiladi;

"Asrga tatigulik kun"da ayollar ham erkaklar qatori ijtimoiy hayotga aralashadi. Yozuvchi erkak va ayolning bir-birini to'ldiruvchi va teng kuch sifatida ko'radi. Bu gender tenglik g'oyasining markaziy nuqtasidir.

Asarlardan misollar

"Jamila"- ayolning o'z taqdirini tanlash huquqi.

"Momo yer"- ayolning og'ir sharoitlarda jamiyat tayanchi bo'lishi.

"Oq kema"- tabiat va inson uyg'unligi, onalik timsoli orqali mehr-muruvvat.

"Asrga tatigulik kun"- zamon o'zgarishida ayollar ijtimoiy rolining kengayishi.

“Sarvqomat dilbarim” -ayolning o‘z hayoti, muhabbati va sha’ni yo‘lida kurashishi.

Gender tenglikning axloqiy-psixologik va falsafiy jihatlari

Aytmatov asarlarida ayol nafaqat ona yoki rafiq, balki mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Bu asarlar o‘quvchini ayolga hurmat, uning sha’ni va qadr-qimmatini e‘zozlashga undaydi. Ayol va erkak o‘zaro teng, bir-birini to‘ldiruvchi kuchlar sifatida talqin qilinadi. Chingiz Aytmatov asarlarida gender tenglik mavzusi juda dolzarb va zamonaviydir. Uning qahramonlari - ayollar mustaqil, kuchli, irodali shaxs sifatida gavdalanadi. Bu bilan yozuvchi jamiyatni ayolni hurmat qilishga, erkak bilan teng huquqli ko‘rishga, ularning imkoniyatlarini birdek qadrlashga chaqiradi.

“Asrga tatigulik kun”... Bu nomni eshitgan ko‘pchilik insonlarning ko‘z oldida, birinchi navbatga, Nayman ona obrazi va uning ayanchli taqdiri gavdalanadi. Ammo asar qahramonlari Edigey Bo‘ron, Abutolib, Zarifa singari insonlarning taqdirini kuzata turib, asosiy, asar mazmunini, maqsad-mohiyatini tashkil etuvchi, haqiqatni ko‘ra olamiz. Urushda jang qilish uchun olib ketilgan, ammo yaroqsiz holga kelgach, uyiga yuborilgan va butun hayoti ag‘dar-to‘ntar bo‘lib, o‘z ona yeridan ketishga majbur bo‘lgan Edigey Bo‘ron, nemislarga asir tushib, inson zoti bardosh bera olmaydigan qiynoqlarga chidab, yurti uchun, tinchligi, ozodligi uchun partizanlar safida jang qilgan, ammo tinchlik davri kelganda ayanchli o‘lim topgan Abutolib singari shaxslar taqdiri asar voqealarining asosini tashkil etadi. Nayman ona voqeasi esa, tarixiy rivoyat shaklida keltirilib, Jo‘lomon shaxsi orqali zamonaviy manqurt Sobitjon qiyofasi ochib berilgan. Har ikkala manqurtning birgina farqi, Jo‘lomon junjanglarning vahshiyliги natijasida, qiynoqlar azobidan ong-u shuuridan ayriladi, Sobitjon esa ongli ravishda shu yo‘lni tanlagandi. Uning qiyofasida ajdodlar udumlarini mensimaslik, ota-onaga mehr, kattalarga hurmat tuyg‘ularining begonaligi, mansab-martabaga intilish, ochko‘zlik illatlarining mavjudligi, shunday xulosa chiqarishimizga sabab bo‘ldi. Yozuvchi o‘zi izoh berganidek, Sario‘zak, Nevada singari kosmodromlar mavjud emas, ammo ularning asarda tasvirlanishi insonlarning o‘zaro ixtiloflari, davlatlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, insoniyatni tanglikka olib boruvchi, taraqqiyotni sekinlashtiruvchi asosiy g‘ov ekanligini, inson ongiga singdirish edi. Asar voqealarini kuzatar ekansiz Edigey Bo‘ron va uning sir-sinoatlarga to‘la hayoti bilan tanishasiz, inson deya atalmish buyuk yaratilgan har qanday sharoitda, har qanday joyda ham o‘z mehnati tufayli yashab qolishiga yana bir bor ishonch hosil qilasiz. Asarda Sobitjonning xotini shunday eslanadi: “ Xotini-chi, shaharlik kelinmish, odamga o‘xshab izzat-hurmati bilan kelib, ko‘p qatori urf-odat yuzasidan aytib-eshitib yig‘lasa, biron yeri kamayib qolarmidi? Na uyat, na vijdon bor ularda. Chol ko‘zi tirikligida, bir juft sog‘in tuyasi, o‘n-o‘n beshta qo‘y-qo‘zisi borligida yaxshi edi. O‘shanda kelin hech kim-ni holi-joniga qo‘ymay, jamiki narsani pullab, yoniga urdi. Cholni uylariga olib ketganday ham bo‘lishdi, o‘zlari bir yo‘la mashina olib, hammayoqlarini mebelga to‘ldirishdi. Keyin esa chol ularga kerak bo‘lmay qoldi. Hozir qorasini ham ko‘rsatmaydi. Xotin-xalaj shularni aytib, to‘polon qi-lishmoqchi edi, Edigey bunga yo‘l qo‘ymadi. Munaqa qila ko‘rmanglar

bunday kunda ortiqcha so'z bo'lishi mumkin emas, bu bizning ishimiz ham emas, u yog'ini o'zlari o'ylab ko'rishsin, dedi".

Romandagi Nayman ona ham erkaklardan qolishmay syujet voqealarida katta o'rin egallagan: " Biroq, qutqazishga urinishlar juda kam bo'lardi, chunki ochiq dalada qilt etgan sharpa darhol sezilib qolardi. Buning ustiga, jungjanglar fa-lonchini manqurt qilishibdi, degan xabar tarqalgan taqdirda, tutqunning eng yaqin birodarlari ham uni qutqazishga yoki pul evaziga qaytarib olishga urinmayoq qo'yardilar, negaki, bu o'sha odamning quruq jasadinigina qaytarish degan so'z edi. Faqat birgina nayman validasi rivoyatlarda Nayman ona nomi bilan mashhur bo'lib ketgan ayolgina o'z o'g'lin-ing bu taxlit achchiq qismati bilan murosa qila olmadi ". Ma'lumki, har bir yozuvchining o'z dastxati, ovozi bo'lganidek, Chingiz Aytmatov ijodining o'ziga xos, boshqalardan ajralib turuvchi xislat va fazilatlari bor. Adib asarlarini ikki tilda qirg'iz va rus tilida yozdi. Uning ijodi nafaqat qirg'iz xalqi, balki jahon xalqlari orasida ham sevib mutolaa qilindi, ayni paytda ham qiziqib o'qilmoqda. Aytmatov asarlarining xalq orasida shuhrat qozonishi va keng ommalashishiga asosiy sababi yozuvchinig xalq hayotini, xalq ruhini haqqoniy aks ettirganidadir.

Adibning "Birinchi Muallim" qissasi qahramonlari ham oddiy, mehnatkash, vatanparvar insonlar sanaladi. Unda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelgan, uni mardonavor yenggan, matonatli, muallim Duyshen orqali fidokor insonlar hayoti ochib berilgan. Qissa tabiat tasviri bilan boshlanadi.

Yosh rassomning bolaligi o'tgan zamin, yonma-yon qilib qurilgan ikki terak, Duyshen maktabi deb nom olgan tepalik haqidagi xotiralari asar voqealariga bog'lanadi. Qissada obrazlar qiyofasi xarakter-xususiyati asar sujeti davomida ochib beriladi. Baland bo'yli, sersavlat, burgut qovoqli, sersoqol, beozor xat tashuvchi qachonlardir navqiron, shijoatli bo'lganini, yetarlicha xat-savodi bo'lmay turib bolalarni o'qitgan muallim Duyshen obrazini asarni o'qiyverganingiz sari kashf qilaverasiz.

Asar voqealari Duyshenning sobiq o'quvchisi akademik Oltinoy Sulaymonova tilidan hikoya qilinadi. Duyshen maktab ochishda hech kim yordam bermaydi. Uyma-uy yurib o'quvchi yig'adi, ularni har kuni maktabga o'zi olib kelib, dars tugagach etib qo'yadi. Hamma uning ustidan kuladi. Shunda ham mashaqqatli ishidan voz kechmay, o'quvchilarga mehr qo'yadi. Bilganlarini o'rgatadi. U tug'ilib o'sgan yurtining, xalqining farzandlarini savodli qilmoqchi edi. Chunki ilm, ma'rifat bilan vatanining kelajagi buyuk bo'lishiga ishonardi. 14 yoshli Oltinoy o'zining bilimga chanqoqligi, intiluvchanligi bilan boshqa o'quvchilardan ajralib turadi. Undagi iqtidorni sezgan muallim Moskvaga o'qishga yuboradi, ilmga bo'lgan ishtiyoqi, tirishqoqligi, mehnatsevarligi tufayli akademik darajasiga yetadi. Qissadagi akademik Oltinoy Sulaymonova obrazi gender tenglikning uorqin misoli bo'la oladi: "Shahardan chakirilganlardan akademik Sulaymonovani ham kutib o'tirgan ekan. Bu ayol bu yerda bir kun-yarim kun turib, keyin Moskvaga jo'nab ketadi, deyishdi. Akademik Sulaymonovaning kelishini eshitib juda suyib ketdim. Xalqqa tanilgan bu olimaning ovulimizdan ekanligi, qiz vaqtida shaxarga ketib, o'qib, olima ovulda qulogimga chalinib yurardi. O'zing

bilan shahardaligimda tanishib olgan edim. Men ko'rganda Oltinoy Sulaymonova sochiga o'xshab, elliklarga borib qolgan, to'lganiga ayol edi. Mashhur hamqishlog'imiz universitetda kafedra rahbari bo'lib ishlaydi, falsafadan o'qish turadi, xizmat qilgan eri akademik bo'lib, tez-tez chet ellarga boribkelib turadi. Opaning bemalol o'tib, men bilan to'lib o'tishga vaqt bo'lmaydi. O'sha gal so'ng majlisda, to'satdan ko'chada uchib qolganimizda ovuldagilarning omonesonligini so'rar, lekin asarlarim paydo qisqacha bo'lsa ham biron fikr aytmay qo'ymasdi. Men bu odamg kamroqligiga, odamoxunligiga qoyil qolib, bir kuni o'zimga dangal aytdim: – Opa, ovulga borib, el-yurt bilan ko'rishib kelsangiz bo'lardi. Ovuldagilarning hammasi nomingizni sirdan tilga olib, faxrlanib yurishadi, lekin ko'pchilik sizni tanimaydi. Atokli olim qizimiz ovulimizdan yosiraydi, bizlarni tanigisi kelmaydi, deydiganlar ham yo'q... – Gapingiz qo'ying, ukam, - deb Oltinoy Sulaymonova xo'rsinbdi, – bo'rishga o'zim ham ko'p kutaman. Bormaganimga ham talay vaqt bo'ldi. Ovulda tug'ishgan qarindoshlarim yo'qku, lekin elingdan yaqin tug'ishganing bo'larkanmi?! Albatta boraman, fursat topdim, boraman... O'zim ham yurtimni xo'p sog'ingman... Akademik Sulaymonova o'sha kuni kechikib keldi. Uning mashinasi kelib to'xtaganda maktabning tantanali majlisini endi ochmoqchi bo'lib turilgan edi. Majlisdagilarning hammasi duv etib chiqib uni kutib olishdi, tanish-tanimagan hamma – yoshu qari u bilan so'rashdi. ”

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chingiz Aytmatov “Asrga tatigulik kun” Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi-2018
2. Chingiz Aytmatov “Birinchi muallim” Toshkent, “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi-2017
- 3.kutubxonachi.uz



Patterns of disease progression and risk determinants of arterial hypertension in adults aged 45–59 years.

Email: abdulazizsotvoldiev06@gmail.com

Quchqorov Shavkat

Fergana Public Health Medical Institute, Department of Normal Anatomy

Sotvoldiyev Abdulaziz

Fergana Public Health Medical Institute, Cardiology Department, 1st-year resident.

Keywords: Arterial hypertension, middle-aged adults, cardiovascular determinants, lifestyle-related risk, target organ involvement, prevention.

Abstract. Arterial hypertension is a chronic cardiovascular disorder that significantly increases the risk of adverse health outcomes in middle-aged populations. The age range of 45–59 years represents a critical stage during which long-term exposure to behavioral, metabolic, and psychosocial factors leads to persistent elevation of blood pressure. This review explores the patterns of hypertension progression in this age group and examines the major determinants influencing disease development and severity. The analysis is based on recent international recommendations and peer-reviewed literature. Evidence indicates that hypertension in middle-aged adults often remains clinically unrecognized while simultaneously promoting early target organ involvement. The high prevalence of modifiable risk determinants highlights the importance of early prevention and individualized risk management strategies.

Introduction: Arterial hypertension is among the most prevalent non-infectious diseases worldwide and remains a primary contributor to cardiovascular morbidity and premature mortality. Despite significant progress in diagnostic approaches and therapeutic options, blood pressure control rates remain insufficient, particularly among individuals of middle age.

Between 45 and 59 years of age, physiological aging of the cardiovascular system becomes more evident. These changes include progressive arterial stiffening, endothelial dysfunction, and increased systemic vascular resistance. When combined with long-term exposure to unhealthy lifestyle behaviors and psychosocial stressors, these mechanisms contribute to the manifestation and progression of hypertension. A major challenge in this population is the frequently asymptomatic nature of elevated blood pressure, which delays diagnosis and increases the likelihood of complications. Therefore, detailed analysis of disease characteristics and risk determinants in this age group is of substantial clinical and preventive importance.

Methods: This narrative review was conducted through structured analysis of scientific publications and international clinical guidelines released from 2015 to 2024. Literature sources included PubMed, Google Scholar, and official documents from leading cardiovascular organizations.

Publications addressing arterial hypertension in adults aged 45–59 years were preferentially selected. Emphasis was placed on clinical progression, contributing determinants, and preventive approaches. Only peer-reviewed articles published in English were included. Data were synthesized using a qualitative analytical approach.

2. **Персонализация обучения** на основе адаптивных цифровых платформ.
3. **Формирующее оценивание** с использованием электронных портфолио и онлайн-обратной связи.
4. **Развитие навыков XXI века (4C)** через цифровые проекты и командную работу.

5. **Интернационализация образования**, участие в международных онлайн-проектах и конкурсах.

Таким образом, цифровые образовательные технологии выступают не как замена традиционного обучения, а как средство его обновления и расширения педагогических возможностей.

ВЫВОДЫ. Использование цифровых образовательных технологий в преподавании английского языка является важным условием повышения качества школьного образования в Узбекистане. Цифровизация учебного процесса способствует развитию коммуникативной и межкультурной компетенций учащихся, повышает их мотивацию и активность.

Современный урок английского языка, основанный на интеграции цифровых и традиционных методов, становится более гибким, интерактивным и ориентированным на личность ученика. В этих условиях учитель играет ключевую роль в педагогически грамотном отборе цифровых ресурсов и создании образовательной среды, способствующей всестороннему развитию учащихся.

Таким образом, цифровые образовательные технологии являются важным инструментом реализации компетентностной парадигмы образования и подготовки школьников к успешной жизни в глобальном и цифровом мире.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (REFERENCES):

1. Пассов Е. И. *Коммуникативный метод обучения иностранному говорению*. — М.: Просвещение, 2019.
2. Гальскова Н. Д., Гез Н. И. *Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика*. — М.: Академия, 2020.
3. Richards J. C., Rodgers T. S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
4. Crystal D. *English as a Global Language*. — Cambridge: CUP, 2019.
5. Указ Президента Республики Узбекистан № ПП-5117 от 19 мая 2021 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков».



Milliy o'zlikni anglash va munavvarqori: tarixiy izlanishlar

Shoxrux Baxtiyor o'g'li Temirov

Tarix fani o'qituvchisi, 2-son Respublika Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidchilik harakatining yetuk namoyandasi, ma'rifatparvar ziyoli Munavvarqori Abdurashidxonovning hayoti va faoliyati tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Muallif Munavvarqorining jadid maktablarni tashkil etishdagi tashabbuslari, ta'lim tizimini isloh etishdagi xizmatlari, o'zbek matbuoti, darsliklar yaratish va milliy ongni shakllantirishdagi o'rni haqida batafsil ma'lumot beradi. Maqolada shuningdek, uning Turkiston Xalq dorilfununining tashkil topishiga qo'shgan hissasi, ilm-fan va madaniyat rivoji yo'lidagi fidoyiligi, shuningdek, siyosiy kurashlardagi qat'iy pozitsiyasi yoritilgan. Sho'ro davridagi qatag'onlar natijasida Munavvarqorining taqdiri fojiali yakun topgani, ammo uning orzulari mustaqillik yillarida ro'yobga chiqqani tahlil etiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Munavvarqori Abdurashidxonov millatning ma'naviy uyg'onishida asosiy harakatlantiruvchi kuchlardan biri sifatida tarixda muhim o'rin tutadi. Maqola o'zbek milliy tafakkurining shakllanish jarayonini o'rganishda, jadidchilik tarixini tahlil qilishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Kalit so'zlar: Munavvarqori Abdurashidxonov, jadidchilik, ma'rifatchilik, milliy uyg'onish, yangi usul maktablari, o'zbek matbuoti, milliy tafakkur, tarixiy shaxs.

1.Mavzuning dolzarbligi: Biz porloq va bir tomondan qayg'uli tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu o'chmas tarixda ne-ne darg'alarni Vatan uchun jon fido qilib, millati ravnaqi va kelajagi uchun shahid bo'lgan tarixiy shaxslarni eshitganmiz, o'qiganmiz. Shular qatorida ma'rifatparvar jadid namoyandalari ham o'zining davrida jamiyat rivoji uchun tish-tirnog'i bilan kurashdilar. Mamlakatimiz o'z erki va mustaqilligiga erishganidan so'ng, boshqa tarixiy shaxslar qatorida ularning ham muborak nomlari oqlandi. Masalan, yetuk jadid ma'rifatpari Munavvarqori Abdurashidxonov boshqa jadidlar qatorida 1999-yil oqlandi.

Bizga tabiiyki savol tug'iladi: nima uchun jadidchilik harakati vujudga keldi? Bu savolga javob topishimiz uchun o'sha davr ijtimoiy holatiga bir nazar tashlaymiz va sizga ko'rsatayotgan misollarimiz dengizdan bir tomchi hisoblanadi. Bu davrda bilamizki, bizning Turkiston hududi Rossiya imperiyasi tomonidan idora qilinayotgan edi. Shu sababli xalq og'ir ahvolga tushib qolgan, ruhan ezilayotgan, qolaversa kundan kunga razolat botqog'iga botayotgan edi.

2.Metodlar va o'rganilganlik darajasi:Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik,qiyosiy mantiqiy tahlil, ketma ketlik, xolislik tamoillari asosida yozilgan bo'lib, unda mustamlakachilik davrida Turkiston hududida tashkil topib rivojlangan jadidchilik harakati va ularning xususan Munavvarqori

Abdurashidxonovning ilm-fan va ma'rifatga qo'shgan hissasi haqida ma'lumotlar berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Miziyoev ham O'z ma'ruzalarida yoshlarni bu davr tarixini o'rganishiga e'tibor qaratganlar. Tarixchi olimlardan D.Alimova o'z kitoblarida ko'rilayotgan mavzuga doir eng qimmatli fikrlar keltirganlar.

3. Asosiy qism: 1892-yil Toshkentda yuz bergan "Vabo isyoni"da qiynalgan xalq panshaxa, ketmon, tosh ko'targan holda mustamlakachilarga qarshi chiqdilar va zamonaviy qurollar bilan qurollangan mustamlakachilar tomonidan qarshi olindi. Minglab olomon Kaykovus daryosiga g'arq qilindi. Yana bir misol, 1898-yil Andijon qo'zg'oloni qonga botirildi, o'nlab Mingtepa kabi qishloqlar to'pga tutildi va kultepaga aylantirildi. Bundan tashqari bu davrda Turkiston hududida diniy mutaassiblik kuchaygan payt edi. Maktablar o'rta asr madrasa usulida qolib ketgan, ta'lim tizimi "paydo" bo'lmasdan turib "vafot" etgan va bir so'z bilan aytganda mamlakat rivojlanishdan orqada qolgan edi. Bunday misollarni keltiradigan bo'lsak, so'zimiz bir kitob bo'ladi. Mana shu xurofot va jabr-zulmni ko'rgan, mamlakatda yangilanishlar qilish tarafdorlari paydo bo'la boshladi. Bu yangilanishlar tarafdorlari - jadidlar edi.

Ushbu jadidlar ichida shunday bir kuch bor ediki, u millati uchun hatto jonini fido qila olgan shaxs edi. O'zbek jadidchiligi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu harakatning yetuk va yirik, ko'zga ko'ringan vakili — Munavvarqori Abdurashidxonov yaqqol ko'z oldimizga gavdalanadi. 1878-yil Toshkent shahridagi nufuzli oilalardan birida, uchinchi o'g'il dunyoga keldi. Unga yaxshi niyat bilan padaribuzrukvari — madrasa mudarrisi, elga taniqli Abdurashidxon va volidai mehriboni Xosiyatxonlar "Munavvar", ya'ni "nurga to'lgan" va "nur bilan yoritilgan" degan ma'noni anglatuvchi ism qo'yadilar. Munavvar yetti yoshligida otasi Abdurashidxon hayotdan ko'z yumadi. Chirqillab qolgan A'zamxon, Muslumxon va Munavvarning yeb-ichishi, kiyim-kechagi, ta'lim-tarbiyasi Xosiyatxon otin yelkasiga tushadi. U o'z davrining o'qimishli va fozila ayollaridan bo'ladi va dilbandlariga boshlang'ich ta'limni o'zi beradi. A'zamxon va Muslumxon o'z yo'llarini topadi, ya'ni otasi kabi madrasada madrasa mudarrisi bo'lib yetishadi. Munavvar yoshligidan o'tkir zehni, akalari qatori ilmga chanqoq bo'ldi. U dastlab Toshkentdagi Yunusxon madrasasida o'qiydi. Keyin esa o'n yoshidayoq Buxoroga borib, u yerdagi madrasalarning birida fiqh va hadis ilmidan dars oladi. So'ngra Toshkentga qaytib, Darxon mahalla masjidida imomlik qiladi.

Munavvarqori qalbida Podsho mustamlakachilariga nisbatan nafrat tuyg'usi mavj urdi. Ammo Podsho Rossiyasidek makkor, dahshatli saltanatga va uning zamonaviy artilleriyalariga qarshi nochor, nodon olomoni qarshi qo'yish mumkin emasligini Munavvarqori va maosirlari (hammaslamlari — muallif) tushunib yetdilar. Juda katta mehnat va turli ta'qiblarga bardosh berish evaziga, Munavvarqori 23 yoshida Turkistonda birinchilar qatori jadid maktabini ochishga muvassar bo'ladi. Unda bolalar o'qish-yozishni ikki yilda o'rganadi. Buning uchun eski an'anaviy maktablarda esa besh yil vaqt sarflanar edi. Munavvarqori Abdurashidxonovning "Bizning jaholat va jahli murakkab" nomli maqolasida

jamiyatdagi salbiy illatlar qalamga olinar ekan, maktab va madrasalarning qoloqligi, muallimlarning zamonaviy ta'lim-tarbiya usullaridan bexabarligi, hamda diniy va dunyoviy bilimlarni bolalarga yaxshi yetkazib bera oladigan kitoblar deyarli yo'qligi nadomat bilan yoziladi.

U maktab ishlarida Mahmudxo'ja Behbudiyga suyanib o'z faoliyatini olib bordi. Mahmudxo'ja Behbudiyning bu boradagi so'zlariga e'tibor bering: "Turkistonda muallim chiqarmak uchun dorilmuallimin bo'lmasa ham, har shaharda usuli ta'limdan xabardor bir-ikki nafar muallim albatta bordur. Ana muallimlikka tolib kishilarni ularning huzuriga yuborib, 3–4 oy zarfida usuli ta'limdan xabardor qildurmoq mumkundur. Agar boyafarz (majburiyatida – muallif), ushbu xidmatni (vazifa) muallimlarimiz intizom qilmasalar, ul holda muallimlikka havaskor yoshlarni bir oz zahmatlik bo'lsa ham, to'g'ridan-to'g'ri Toshkanda Munavvarqori janoblarining maktabig'a yubormoq kerakdurki, mushorun alayxning (mening maslahatimga ko'ra – muallif) munday toliblarni maolmamnuniyat qabul etmoqlarig'a amindurmiz. Ishta, muhtaram qarindoshlar, millatimizning tilagi va eng zo'r ehtiyoji ushbu shaylar ediki, nazari oliylaringiza arzi taqdim etduk".

Adabiyotshunos Nurboy Abdulhakim ma'rifatparvar Munavvarqori Abdurashidxonovning "Ey qardoshlar, voy millatdoshlar!!! Ko'zimizni g'aflat uyqusidan ochib, atrofimizga nazar solmog'imiz lozimdir. Har millat o'z saodati hol va istiqbolini muhofazasiga birinchi vosita ilm olmog'iga qanoat hosil qilib, ilmu ma'rifatga ortiq darajada harakat qilgan bu zamonda bizlar bu g'aflat va jaholatimizda davom etsak, istiqbolimiz nihoyatda xavfli bo'lib, hamma olamga masxara va kulgu bo'lmog'imizda hech shubha yo'qdur", degan so'zlarini keltirar ekan, bunday yozadi: "Jaholat deganlari qachondir tarixda bo'y ko'rsatganu endi qaytib kelmasligi aniq bo'lgan hodisa emas. Taassuflar bo'lsinki, u har bir zamonda qaysidir ko'rinishlarda namoyon bo'lavveradi. Millatni ich-ichidan yemiradi. Taraqqiyotdan necha yuz yillar orqada qolishiga sabab bo'ladi. Tanazzul girdobiga tortadi. Binobarin, har bir millatni, uning vakillarini jaholatdan qutqarguvchi yagona vosita ilm va ma'rifatdir. Kimki ilm va ma'rifatga munosib darajada e'tibor bersa, shubhasiz, saodatga erishadi".

Munavvarqori bir qancha darsliklar muallifi ham hisoblanadi. Uning "Adibi avval" (1907), "Adib us-soniy" (1907), "Usuli hisob", "Tarixi qavm turk", "Tajvid" (1911), "Havoyiji diniya", "Tarixi anbiyo", "Tarixi islomiya" (1912), "Yer yuzi" (1916–1917) kabi asarlari bir necha marta chop etilgan. Munavvarqori millatning yuksalish va uyg'onishini faqat maktablardagina bog'liq deb tushunmaydi. U keng xalq ommasini dunyo voqealaridan, o'z ijtimoiy ahvoli va siyosiy voqealardan xabardor bo'lishi lozimligini tushunib, gazeta-jurnal va badiiy-ilmiiy to'plamlar nashr etishga katta e'tibor beradi. Dastlab 1906-yilda Ismoil Obid muharrirligi va hamkorligida Toshkentda "Taraqqiy" gazetasini nashr ettirishga muvaffaq bo'ladi. Ammo bu gazeta tez orada chor hukumati amaldorlari tomonidan man qilinadi. Shu yilning o'zida "Xurshid" gazetasini nashr qiladi. Bundan tashqari juda ko'plab jadidlar shirkatlar va jamiyatlar tuzishdi. Xususan, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'lining bu sohadagi faoliyati ayniqsa e'tiborga

loyiqdir. U jamiyat ochish qonun-qoidalari, jamiyatning maqsad va vazifalari haqida maqola ham yozadi. Uning "Jamiyat qanday ochilur?" maqolasida quyidagilarni o'qiymiz: "Maktabni ochub qo'ya qolgan bilan ish bitmasligi, balki aning farqi va davomi uchun moddiy va ma'naviy yordam va maovnatlar, g'ayrat va hikmatlar lozim ekanligi anglashilmishdur. Buning uchun eng yaxshi chora – jamiyatni tuzmishlar. Ya'ni rasmiy bir qonun doirasida xalqdan i'ona yig'ib ochilmish va ochiladurg'on maktab va dorululmlarning nuqson va ehtiyojlarin yengillik ila isloh qilmoq va ado qilmoq usulini ijod etmishlar. Bora-bora bu jamiyat shu qadar taraqqiy qilmish va rahmat kasb qilmishki, madaniy millatning butun taraqqiyoti diniya va ehtiyojyoti millatlar uchun eng ishonchli suyanchiq va muttako etilmoq va ularda madaniyat narvonining birinchi bosqichi maktab, ikkinchisi jamiyat ekan, hozir ko'p yerlarda maktabni ikkinchilikka qoldurub birinchi bosqichlik nomi, muqaddasasini jamiyat o'zina olmisdur" Munavvarqori o'z faoliyatida juda ko'plab jamiyatlar tuzdi, jumladan "Jamiyati Imdodiya (1909)", "Turon (1913)", "Turkiston kutubxonasi (1914)", "Umid (1914)", "Maktab (1914)", "Ko'mak (1921)".

Munavvarqori ham o'z faoliyati davomida juda ko'plab tashkilotlarda ishlaydi. Munavvarqori Sho'ro hokimiyati davrida, dastlab, Toshkentdagi eski shahar maorif bo'limi mudiri, Turkiston hukumati oliy organi – Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi a'zosi, Maorif Xalq Komissarligi kollegiyasi a'zosi, Bosh Vaqf boshqarmasida bo'lim mudiri, oddiy o'qituvchi, gazeta muharriri bo'lib ishlaydi. Shu bilan bir qatorda Munavvarqori o'zbek milliy teatri asoschilaridan biri sifatida ham katta obro' va e'tibor topgan. U o'z fikrdoshlari bilan ijodiy hamkorlikda 1914-yildayoq "Turon" truppasini tuzgan edi. Bu truppa besh yil faoliyat ko'rsatadi. Qolaversa 1916-yil oxirlarida Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligida "Muallimlar jamiyati" tashkil etiladi. Bu jamiyatning asosiy maqsadi ko'proq iqtidorli yoshlarni taraqqiy etgan chet el oliy o'quv yurtlariga yuborish, Vatanimizda kelgusida ochilajak oliy o'quv yurti uchun zamonaviy oliy ma'lumotga ega mutaxassis tayyorlash edi. Tez orada esa uning orzusi qaysidir ma'noda amalga oshdi. Ya'ni Turkiston zaminida ham dastlabki oliy o'quv yurtiga o'zi tamal toshini qo'ydi. Munavvarqori hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti poydevorini qo'ygan kishilardan biri. 1918-yil 9-aprelda uning uyida to'plangan ziyolilar faqat rus tilliklar o'qishi mumkin bo'lgan Turkiston Xalq dorilfununini tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkilot komissiyasini tuzadi. Unga Munavvarqori (rais), Burhon Habib, Iso To'xtaboyev, Sodiq Abdusattorov, Murodbek, Murodxo'ja, Muxtor Bakir, Abdusami Qori Ziyoboyev va boshqalar kirgan edi. Komissiya Musulmon Xalq dorilfununini ham Ruscha Turkiston Xalq dorilfununini kabi uch bosqichda tashkil etadi: yuqori bosqich – dorilmuallimin (o'qituvchilar instituti); o'rta bosqich – o'rta hunar maktablari; quyi bosqich – boshlang'ich maktablardan iborat bo'ladi.

1918-yil 12-may kuni esa Eski shahar dahasidagi Vikula Morozovning sobiq magazini binosi (hozirgi O'zbek yosh tomoshabinlar teatri)da Musulmon Xalq dorilfununining ochilish marosimi bo'ladi. Uni Munavvarqori qisqacha kirish so'zi bilan ochib, musulmonlar chorizm davrida rus yo'qsillari bilan birgalikda yarim asr

qullikda yashagani, bugungi ozodlik va tantana katta talofotlar bilan qo'lg'a kiritilganini aytdi. Shundan so'ng bu kurashda halok bo'lganlarga bag'ishlab, Qur'oni karimdan tilovat o'qilib, fatvo beriladi. Musulmon dorilfununi Munavvarqori rahbarligida o'z davrining katta bilim maskaniga aylanadi. U 15 demokratik madaniy – ma'rifiy tashkilot vakillaridan uyushgan 45 kishilik kengash tomonidan boshqariladi. Unda ishlovchi muallimlar soni 180 nafarga yetadi. Uning 1918-yil 31-maydan boshlab, "Xalq dorilfununi" gazetasi chiqadi. Bularning hammasi hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti uchun moddiy-texnikaviy va ilmiy-pedagogik asos bo'ldi. Millat erki va Vatan ozodligi fidoyisi bo'lgan Munavvarqori faoliyatidagi ko'zga ko'rinarli asosiy tomonlardan uning jadid oliy ta'limiga asos solish va oliy malakali kadrlar tayyorlash uchun kurashdan iborat bo'ldi. Bu sohada u mustamlaka siyosati va mahalliy mutaassiblik kabi ikki tomonga qarshilikka to'g'ri keldi.

Munavvarqori mustamlakachilikka qarshi "Podsho hukumatini yiqitish jadidlarning tilagida bor edi. Siyosiy vazifamiz va maqsadimiz ham shundan iborat bo'lishi yashirin emas", deydi. Bu so'zlari qaysidir ma'noda amalga osha boshlagan edi, masalan, Munavvarqoriga rus demokratik Fevral inqilobi zulmatdan yorug'likka chiqish, jaholat ustidan adolat tantana qilishidek bo'lib ko'rinadi. U dastlab Oktyabr to'ntarishining nomilliy mohiyatini to'la tushunib yetsada, xalqqa berilgan erkinliklar va shiorlarni ma'qullaydi, ijtimoiy-siyosiy faoliyatga beriladi. 1917-yil yozida Toshkent shahar Dumasiga o'tkazilgan saylov oldi mavsumida Munavvarqori musulmonlar mitingi va yig'ilishlarda otashin nutqlar so'zlab, ularni siyosiy faollikka chaqiradi, natijada musulmonlar katta yutuqni qo'lg'a kiritadi. Dumaga saylangan 112 deputatdan 76 nafarini mahalliy xalq vakillari tashkil etadi. Ular orasida Munavvarqori ham bor edi. Munavvarqori xalq maorifini yevropacha zamonaviy va sharqona islomiy bilimlar majmui asosida boshlang'ich, o'rta va oliy ta'limdan iborat uch bosqichli tizimini rivojlantirish tarafdori bo'ladi. Uning o'zi ikki bosqichli jadid maktabini tashkil etgan edi. Uning birinchi bosqichi to'rt yillik bo'lib, bolalarga umumiy diniy va dunyoviy bilimlar asosini beradi. Ikkinchisi esa yetti yillik edi.

Munavvarqorining "Namuna maktabi" nomini olgan ushbu maktabida boshqa tabiiy fanlar bilan bir qatorda rus tilini o'qitish uchun Sirdaryo viloyat xalq o'quv yurtlari direktori S.M.Gramenskiyga "Iltimosnoma" bilan murojaat qiladi. U o'z iltimosida yerli aholi uchun rus tilini o'qitish naqadar zarurligini inkor qilib bo'lmaydigan dalillar bilan isbotlaydi. Ming bor afsuski, bu ulug' zot sho'ro tarixida "xalq dushmani", "millatchi" deb ta'riflanib kelindi. Unga nisbatan yosh avlodda nafrat tuyg'usini tarbiyalashga harakat qilib kelindi. Munavvarqori bor-yo'g'i 53 bahorni ko'rdi. Shundan 39 yili "inqilob"dan oldingi chorizm mustamlakachilik azobi ostidagi bolalik, balog'at va faollik davri bo'lsa, qolgan 14 yili qizil imperiya va lenincha qatag'onlik siyosati tomonidan ma'naviy xo'rlanish zamoni bo'ldi. Umrining oxirgi ikki yilida u harbiylashtirilgan siyosiy boshqarma qamoqxonalari o'z xalqi ozodligi va mustaqilligi uchun o'linga qarshi tik turib kurashdi. Bizlarga nasib bo'lgan siyosiy va milliy mustaqillik uning uchun ulkan armon bo'lib qolsa-da, u bu yorug' kunlarning kelishiga komil ishonch bildirar edi.

Munavvarqori juda ko'plab firqalar faoliyatida ham qatnashdi va faol ishtirokchilardan biri sifatida tanildi. U qamoqqa olingan vaqtlarda ham ijod qilishdan to'xtamadi. Munavvarqorining qamoqxonada yozgan "Xotiralarim" asarida shunday so'zlar bor edi: "Mening yozgan kitoblarim va mafkuramga nisbatan 1925-yildan boshlab matbuotda juda kuchli hujum boshlandi... Tabiiy ravishda, men ularga toqat qila olmadim. Shu sababdan Toshkentni butunlay tark etib ketishga, Moskvaga borib, u yerda qolgan umrimni o'tkazishga... azmu qaror qildim." Shuni aytish kerakki, Munavvarqoridek elga tanilgan, xalqning ma'naviy otasi va yo'l boshchisi bo'lgan kishining o'z vatanidan bezib ketishga "azmu qaror" qilganligi osonlikcha bo'lmagan, albatta. Darhaqiqat, Munavvarqori 1926-yili Moskvaga ketadi. U yerdagi Sharq xalqlarini o'rganish institutida o'qish va ilmiy ishga qolishga harakat qiladi. Ammo uni "rasmiy yo'llanma bilan qabul qilish" mumkinligini aytib, Toshkentga qaytarishadi. Akmal Ikromov Moskvada yo'llanma berishga va'da ham beradi. Lekin va'da va'daligicha qoladi. Munavvarqori O'zbekiston Xalq maorifi komissarligidan "Sizning arizangiz rad etishga qaror qilindi, o'ringizga boshqa kishi yuboriladi" degan javob olgach, Afg'onistonning Toshkentdagi vakolatxonasi orqali xorijga o'tib ketishga harakat qiladi. Ammo bu amalga oshmaydi.

Aytish mumkinki, Munavvarqorining sho'ro davridagi kurashi va hayoti oybolta ostida o'tdi. Agar dastlabki ikki-uch yil hisobga olinmasa, u kommunistik mustamlaka davrida sira ham ro'shnolik ko'rmadi. Doimo ta'qib va kuzatuv ostida yashadi. Uning o'zi yozishicha, Oktyabr to'ntarishidan so'ng komfirqa olib borgan siyosatga qo'shila olmaydi. Ammo u rus xalqiga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'ladi. Uning inqilobdan oldingi rus ma'rifatparvar va demokratlarining g'oyalaridan voqif bo'lganligi shubhasiz, albatta. Shuning uchun ham u 1927-yilda jadidchilikni himoya qilib, Toshkent okrugi madaniyatchilari minbaridan turib ushbu otashin va qalb so'zlarini aytgan: "...Bir majlisda rus mustamlakachilari bilan kurashamiz, degan edim. Agar bordiyu, rus o'rtoqlar gapimga araz qilib, 'ol mamlakatingni, o'zing idora qil', desa, men ularning oyog'iga yopishib, eng avval aytar edimki, biz siz bilan emas, sizning boyingiz, ulamongiz va mustamlakachilaringiz bilan kurashamiz der edim".

1928-yili yoshlarni millatchilik ruhida tarbiyalashda ayblanib, Munavvarqori maktab o'qituvchiligidan ham haydaladi. Ozgina vaqt Samarqand shahar muzeyida ilmiy xodim bo'lib ishlaydi. Keyin esa Toshkentdagi Eskilik va san'at yodgorliklarini saqlash qo'mitasi vakili lavozimiga o'tkaziladi. Bu uning oxirgi ish joyi bo'lib, unda ham ko'p ishlash imkoni bo'lmaydi. Uyda ishsiz o'tirib qoladi. Uning o'zi yozishicha, har kuni 9-10 soatlab uyda qo'lqop va paypoq to'qiydi. Ularni sotib, tirikchilik qiladi. Bu davrda xotini Lazizaxon tibbiyot bilim yurtida o'qishi sababli, biror joyda ishlamas edi. 1928-yil boshlarida SSSR Xalq Komissarlari Kengashi qoshidagi Birlashgan Davlat Siyosiy Boshqarmasining O'rta Osiyodagi muxtor vakili Belskiy Munavvarqorini chaqirib, jadidchilik haqida u paydo bo'lganidan boshlab to hozirgacha yozib berishini talab qiladi. Shundan so'ng u, bir tomondan, bo'lib o'tgan voqealarni tadqiq qilish va tarixiy material qoldirish maqsadida, ikkinchi tomondan esa, hukumat oldida o'z siyosiy mavqeini

yaxshilash umidida "Xotiralarim"ni yozishga kirishadi. Uning Afg'onistonga o'tib ketish fikridan qaytganligining sabablaridan biri ham aynan shu bo'lgan edi.

4. Tadqiqot natijalari: Munavvarqori jadidchilik haqida - uning paydo bo'lganidan boshlab Fevral inqilobi va Oktyabr to'ntarishigacha, hamda sho'ro davridagi holatni o'z ichiga olgan - uch qismdan iborat asar yozish rejasini tuzib, uni Belskiy va Agdulinga ko'rsatadi. Ular rejani ma'qullashadi. "Xotiralarim"ning birinchi qismi yozilib, ikkinchisi ham tugash arafasida bo'lgan bir paytda GPU tomonidan Munavvarqori qamoqqa olinadi. Ushbu voqea 1929-yil 6-noyabrga to'g'ri keldi. Bu kun butun o'zbek ziyolilari uchun tarixda qora kun bo'lib qoldi. Chunki aynan shu kuni birdaniga 26 nafar ziyoli, noyabr-dekabr oylarining o'zida esa 38 kishi qamoqqa olinadi. Munavvarqoriga qamoqxonada odatdagidan boshqacharoq tergov usuli qo'llanadi. Dastlabki paytlarda unga jadidchilik haqidagi "Xotiralarim"ning uchinchi qismini yozib tugatish uchun qulaylik yaratiladi. Munavvarqori va uning sheriklarini so'roq qilish bir yildan ortiq davom etadi. Nihoyat, Munavvarqori boshliq 87 kishining jinoiy ishi 1931-yil 25-aprelda Moskvada, SSSR Xalq Komissarlari huzuridagi Birlashgan Siyosiy Boshqarmaning Kollegiyasi majlisida ko'riladi. Ayzenberg ismli shaxsning 20 daqiqalik ma'ruzasi asosida 87 kishidan 15 tasi, jumladan Munavvarqori ham, oliy jazo - otib o'ldirishga hukm qilinadi. Qolganlari esa uzoq muddatli surgunlarga yuboriladi. Ularning aksariyati surgundan qaytib kelmay, sovuq o'lkalarda halok bo'ladi. Munavvarqori qachon va qayerda qatl qilingan? Bu savolga GPU xodimlarining o'zlari ham keyinchalik aniq javob bera olmagan.

Yillar o'tib, kommunistik qatag'on davri sirlari ochila boshlagach, 87 kishi haqidagi tergov hujjatlari qayta o'rganilib, ulardan faqat 26 kishi O'zbekiston SSR Oliy sudi Vosiqova raisligida o'tgan sudlov hay'ati tomonidan oqlanadi. Shuni aytish lozimki, bu hur fikrli zotlarning taqdiri va takomili ma'lum - ular istiqloq qurboniga aylanishdi. Ammo ularning shahid bo'lgan kuni, muborak qoni to'kilgan joy - pok xoklari makon topgan aziz zamin hamon aniq emas. Ma'lumki, "Vechernaya Moskva" gazetasining 1992-yil 25-may sonida Munavvarqori va yana to'rtta vatandoshimiz Moskvada o'qqa tutilgani haqida xabar bosilgan. Lekin shunga qaramay, boshqa ma'lumotlar bu borada hali ham jiddiy ilmiy tadqiqot va izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Mustaqillik yillarida boshqa jadidlarga nisbatan kech bo'lsa-da, Munavvarqori Abdurashidxonov 1999-yilda oqlandi. Uning bir qator asarlari, jumladan 2001-yilda "Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar)" nomli kitobi chop etildi.

5. Xulosalar: Munavvarqori o'z davri uchun juda katta ishni zimmasiga oldi va bu yo'lda hattoki jonini fido qildi. Uning ko'zlagan maqsadlari va orzulari kech bo'lsa-da - ya'ni mustaqillik yillarida - ro'yobga chiqdi. U istaganidek yoshlar ma'rifatparvar bo'lishdi, o'z ilm dargohlariga ega bo'lishdi, qo'shni mamlakatlarga ilm olish va malaka oshirish uchun bora boshlashdi hamda keng imkoniyatlarga ega bo'lishdi. U istaganidek, erkin va mustaqil matbuot yuzaga keldi va yana boshqa yutuqlar qo'lga kiritildi. Bir so'z bilan aytganda, Munavvarqori kech bo'lsa-da, o'z maqsadlariga yetdi. Ammo bu yutuqlarni ko'rish unga nasib etmadi. Xulosa qiladigan bo'lsak, Munavvarqori Vatan ravnaqi va yurt taraqqiyoti yo'lida

juda katta ishlarni amalga oshirgan. Men bir narsani bilamanki, buyuk ishlarni qiladigan shaxslar yuz yoki ikki yuz yilda bir marta dunyoga keladi. Ular kelib, mamlakat taraqqiyoti, uning kamoloti va millat obodligi uchun qayg'uradi va shu yo'lda shahid bo'ladi.

Bu o'rinda Munavvarqori Abdurashidxonovning shogirdi aytgan quyidagi so'zlar yodimga tushadi: "Tarixni shaxslar yaratadi. Tarix tarjimai hollardan, ayniqsa, atoqli kishilarning tarjimai hollaridan iboratdir, deyдилar. Menimcha, biz ham Turkiston tarixining o'tgan asr so'ngidan boshlangan uyg'onish davrini Munavvarqori yaratdi va Turkiston tarixining jadidchilik davri boshdan oxirigacha Munavvarqorining tarjimai holidan iboratdir, desak yanglishmaymiz." Ha, albatta, bu – shubhasiz va inkor etib bo'lmaydigan haqiqat.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Abduqodirov A. Jadidchilik harakati va uning ma'naviy-ma'rifiy o'rni. Toshkent: "Akademiya", 2005.
2. Karimov I. O'zbekiston tarixi: Jadidlar davri. Toshkent: "Ma'naviyat", 1998.
3. Xoliqova R. Istiqlol yo'lida jon fido qilgan millatimiz fidoyilari. Toshkent: "Fan va texnologiya", 2012.
4. Mamadazimov M. Munavvarqori Abdurashidxonov: hayoti va faoliyati. Toshkent: "Istiqlol", 2009.
5. Boboyev M. Jadidlarning ma'rifiy faoliyati. Samarqand: "Ilm ziyo", 2007.
6. Xudoyberdiyev A. Yangi usul maktablarida diniy va dunyoviy fanlarning o'qitilishi. Toshkent: "O'zbekiston", 2020.
7. Davronov H. Munavvarqori: ikki maqola va she'rlar. Toshkent: "Sharq", 2014.
8. Tursunov S. Jadidlarning O'zbekiston madaniyati rivojida o'rni. Toshkent: "Ma'naviyat", 2003.
9. Mirzayev O. Jadidlar va zamonaviy o'zlik. Toshkent: "Ilm va Ziyo", 2021.



Ways to improve sustainable development strategies in the management system

Tursunov Ozodbek Badalovich

Teacher of Fergana State University
Fergana, Uzbekistan

Abstract. This article provides an in-depth scientific analysis of improving sustainable development strategies within enterprise management systems. Based on the socio-economic conditions of Uzbekistan and international best practices, the research substantiates organizational, institutional, and economic mechanisms for integrating sustainability principles into strategic management. The results contribute to the theoretical enrichment of sustainable management and offer practical recommendations compliant with OAK journal requirements.

Keywords. Sustainable development; green management; strategic management; ESG; enterprise efficiency; Uzbekistan

Introduction. Sustainable development has become a dominant concept in contemporary economic science, reflecting the need to harmonize economic growth with environmental protection and social well-being [1]. In recent years, Uzbekistan has undertaken systemic reforms aimed at modernizing the national economy, strengthening environmental responsibility, and ensuring long-term macroeconomic stability. The adoption of the 'Uzbekistan–2030' Strategy and the national transition to a green economy demonstrate the increasing relevance of sustainability-oriented management systems.

Despite the growing policy focus, many enterprises continue to operate under traditional management models that prioritize short-term financial outcomes over long-term sustainable value creation. This creates a methodological and practical gap between declared strategic objectives and actual management practices. Therefore, scientific research into the improvement of sustainable development strategies within enterprise management systems is of high academic and applied significance.

Literature Review. The theoretical foundations of sustainable development were initially formulated within the framework of global development economics and environmental management. Classical contributions by Porter emphasize competitive advantage through innovation and resource efficiency [2], while later studies expanded sustainability into ESG-based strategic management models.

Contemporary scholars highlight that sustainable management enhances enterprise resilience, reduces operational risks, and improves stakeholder trust. OECD and UNDP reports confirm that countries integrating sustainability principles into corporate governance achieve higher long-term productivity growth [3][4]. However, empirical studies focusing on transition economies, including Uzbekistan, remain limited, which underlines the novelty of the present research.

Methodology. The research methodology is based on an integrated approach combining qualitative and quantitative methods. Systematic and structural analysis was used to identify the components of sustainable management systems. Comparative analysis allowed assessment of international and national practices. Statistical methods were applied to evaluate macroeconomic and sectoral indicators for the period 2020–2024.

The empirical base of the study includes official data from the State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, analytical reports of the World Bank, UNDP, and OECD, as well as expert assessments obtained through analytical reviews [5][6].

Results. The findings indicate that enterprises adopting sustainable development strategies demonstrate measurable improvements in economic efficiency and resource utilization. During 2020–2024, the share of renewable energy in Uzbekistan increased steadily, while energy intensity of GDP showed a declining trend, reflecting improved management practices [7].

Furthermore, enterprises implementing environmental management systems reported reductions in production costs due to optimized energy consumption and waste minimization. These results confirm that sustainability-oriented management is not only environmentally beneficial but also economically viable.

Discussion. The discussion reveals that the effectiveness of sustainable development strategies largely depends on the quality of management systems. International experience demonstrates that enterprises with integrated ESG frameworks achieve stronger market positions and higher investment attractiveness.

In Uzbekistan, barriers to effective implementation include insufficient managerial competencies, limited access to green financing instruments, and underdeveloped monitoring mechanisms. Addressing these challenges requires institutional reforms, capacity-building programs, and the expansion of digital management technologies.

Policy Implications. From a policy perspective, the results suggest the necessity of aligning national economic regulation with enterprise-level sustainability strategies. Government incentives for green investments, tax preferences, and public-private partnerships can significantly accelerate the diffusion of sustainable management practices.


Additionally, integrating sustainability indicators into corporate reporting standards will enhance transparency and accountability across economic sectors.

Conclusion. In conclusion, improving sustainable development strategies through enterprise management systems is a critical factor for ensuring long-term economic stability in Uzbekistan. The study substantiates that sustainability-oriented management contributes to economic efficiency, environmental protection, and social responsibility.

Future research should focus on sector-specific sustainability models and quantitative assessment of ESG impacts on enterprise performance.

References

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-6099, 2020.
2. Porter, M. Competitive Advantage. Free Press, 1985.
3. OECD. Green Growth Indicators. Paris, 2023.
4. UNDP. Sustainable Development Report. New York, 2023.
5. State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Statistical Yearbook, 2024.
6. World Bank. Uzbekistan Economic Update. Washington DC, 2024.
7. Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan. Analytical Report, 2024.





The role of human resource management in a sustainable development strategy

Tursunov Ozodbek Badalovich

Teacher of Fergana State University

712000, Fergana city, Murabbiylar street, 19

E-mail: ozodbektursunov198812@gmail.com

Introduction. Sustainable development (SD) is a strategy for the development of society by combining economic growth, social justice and environmental sustainability, which plays a central role in solving the global economic and social problems of the 21st century. The concept of sustainable development was first introduced to the scientific community in the Brundtland Report in 1987 and has been widely used worldwide since then.

Human resources (HR) are the most important asset for enterprises and organizations. They not only effectively manage the production process, but are also the main tool for the success of a sustainable development strategy. The knowledge and skills, motivation and loyalty of employees are key factors in the implementation of the SD strategy.

In the context of Uzbekistan, the state has developed a sustainable development strategy until 2030 in order to ensure economic development and social stability. At the same time, an effective system of human resource management in enterprises is important in the implementation of the SD.

Research objective: To identify the place of human resource management in a sustainable development strategy and describe effective management mechanisms.

Research tasks:

1. Analysis of the principles and concept of sustainable development strategy;
2. Determination of the role of human resource management in BR;
3. Study of the effectiveness of IRB in Uzbek enterprises;
4. Development of recommendations for harmonizing IRB with BR.

Research methods

1. **Literature review:** National and international scientific articles on BR and IRB, reports of government and international organizations were studied. This analysis served to identify the main directions of BR and the role of IRB in implementing BR in enterprises.

2. **Survey:** A survey (N=150) was conducted among employees and managers at large manufacturing enterprises in Uzbekistan. The survey was aimed at studying the impact of the BR strategy on employee readiness, motivation and productivity.

3. **Interviews:** 10 in-depth interviews were conducted with enterprise managers. The interviews helped to identify the real importance and practical mechanisms of IRB in implementing BR.

4. **Statistical analysis:** The survey results were analyzed using the SPSS program. Correlations and trends between the main variables were identified.

Results

1. Sustainable Development Strategy and IRB

According to the results of the study, the active participation of employees is important in the implementation of BR in enterprises. IRB strategies have been found to be effective in the following areas:

Employee training and development: Training employees in the principles of BR, providing knowledge on environmental and social responsibility.

Motivation systems: Incentives and rewards encourage the implementation of BR projects.

Making the work environment stable and safe: Increases employee loyalty and productivity.

2. Survey results

Direction	Very important (%)	Important (%)	Less important (%)
Training of employees	45%	40%	15%
Motivation and encouragement	50%	35%	15%
Improving the work environment	30%	50%	20%

The survey results showed that employee training and motivation are among the most important factors for the success of a BR strategy.

3. Interview results

Managers emphasized that the knowledge and skills of employees are the main factor determining the success of the strategy when implementing HR.

The lack of a specific HR strategy in the enterprise slows down some projects.

Discussion. The results show that an effective HRM system is important in the sustainable development strategy in the following aspects:

1. Employee training: The professional development of employees ensures the continuity of the HRM strategy.

2. Motivation system: Incentives stimulate HRM-oriented initiatives and increase productivity.

3. Improving the work environment: Stable and safe working conditions increase employee loyalty.

In the context of Uzbekistan: The implementation of the HRM strategy requires the coordination of regulatory documents developed by the state and HR strategies in enterprises.

Recommendation: Enterprises should focus on training, motivating and improving working conditions for employees to implement HRM. HR strategy should be aligned with HRM principles.

Conclusion

IRB serves as an important tool in the BR strategy.

The knowledge and skills of employees, their motivation and working conditions determine the effectiveness of the BR strategy.

By improving the IRB system in Uzbek enterprises, BR can be successfully implemented.

Future research should focus on more accurately measuring the contribution of employees to BR initiatives.

Literature

1. Armstrong, M. (2020). *Armstrong's Handbook of Human Resource Management Practice*. Kogan Page.
2. Dessler, G. (2021). *Human Resource Management*. Pearson.
3. United Nations. (2015). *Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development*. UN.
4. President of the Republic of Uzbekistan. (2023). "Uzbekistan - 2030: sustainable development strategy". Tashkent.
5. Salih, M. (2019). "HR practices and sustainable development: Global perspectives." *Journal of Human Resource Studies*, 7(2), 45-60.





Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ma'naviy-diniy qadriyatlarini shakllantirishda pedagogik yondashuvlar

Otayev Umidbek Matyoqubovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
O'quv-uslubiy bo'limi o'qituvchi-metodisti kapitan

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ma'naviy-diniy qadriyatlarini shakllantirishda maktab tarbiyasining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tarbiyaning shaxsning psixologik barqarorligi, axloqiy dunyoqarashi hamda ijtimoiy moslashuvchanligini rivojlantirishdagi roli chuqur yoritilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim; ma'naviy-diniy qadriyatlar; pedagogik yondashuv; axloqiy tarbiya; shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

Аннотация: В статье анализируются место и значение школьного воспитания в формировании духовно-нравственных ценностей у учащихся начальной школы. Подробно раскрывается роль воспитания в развитии психологической устойчивости личности, нравственного мировоззрения и социальной адаптивности. Особое внимание уделяется путям формирования системы духовно-нравственных ценностей на основе педагогического подхода в условиях светского образования.

Ключевые слова: начальное образование; духовно-нравственные ценности; педагогический подход; нравственное воспитание; личностно ориентированное обучение.

Abstract: The article examines the role and significance of school education in shaping spiritual and moral values among primary school students. It thoroughly explores how moral education contributes to the development of psychological stability, ethical worldview, and social adaptability of the individual. Particular emphasis is placed on approaches to instilling spiritual and moral values through pedagogical strategies within a secular educational framework.

Keywords: primary education; spiritual and moral values; pedagogical approach; moral education; student-centered learning.

Zamonaviy O'zbekiston ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri kelajak avlodni nafaqat bilimli, balki ruhan boy, axloqiy jihatdan barqaror, vatanparvar hamda ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashdir. Ayniqsa globalizatsiya, axborot inqilobi hamda axloqiy beqarorlik kabi jahon tendensiyalari sharoitida yosh avlodning ma'naviy dunyosi qanday shakllanayotgani har bir mamlakat uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxsning ongli dunyoqarashini, axloqiy me'yorida xatti-harakat qilish qobiliyatini, diniy-ma'naviy qadriyatlar tizimini shakllantirishning eng samarali va sezgir davridir. Psixologik tadqiqotlar ko'rsatadiki, 6–10 yoshdagi bolalar atrof dunyoni hissiyotlar orqali idrok etadi, ularda adolat, mehribonlik, hurmat,

sodiqdo'stlik kabi fazilatlar taqlid, misol va doimiy ta'sir natijasida chuqur singib ketadi. Shu sababli ham boshlang'ich maktab nafaqat bilim beruvchi muassasa, balki ma'naviy merosni saqlab, yangi avlodga yetkazuvchi markaz sifatida qaralishi kerak.

Bu jarayonning huquqiy poydevori esa O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlangan. 18-modda har bir fuqaroning "diniy e'tiqodga ega bo'lish yoki e'tiqodsiz bo'lish huquqiga ega"ligini ta'kidlasa, 64-modda "davlat diniy tashkilotlarning davlat ishlariga aralashishiga yo'l qo'ymaydi" deb chegarani aniq belgilab beradi. Bu ikki modda birgalikda ta'lim sohasida diniy tarbiyaning sekulyar, lekin ma'naviy yo'nalishda amalga oshirilishini talab qiladi. Mazkur tamoyil "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qononida yanada aniqroq ifodalangan: "Ta'lim tizimi shaxsni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ruhiy boylik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik asosida tarbiyalashga xizmat qiladi". Bu yerda "ruhiy boylik" tushunchasi aynan ma'naviy-diniy qadriyatlar tizimini anglatadi, chunki u insonning ichki dunyosini, axloqiy barqarorligini, ijtimoiy mas'uliyatini o'z ichiga oladi. Davlat siyosati bu tamoyillarni amalga oshirish uchun maxsus hujjatlarni ham qabul qilgan. Jumladan, "Ma'naviyat tarkib topgan yosh avlod O'zbekistonning kelajagi" Milliy dasturi boshlang'ich ta'limda oilaga mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, vatanparvarlik hissini shakllantirish, o'zbek xalqining ma'naviy-an'anaviy merosini saqlash va rivojlantirish, diniy bilimlarni fan va zamon talablariga mos ravishda yetkazish kabi yo'nalishlarni belgilab bergan. Shuningdek, "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi" ham ta'kidlaydiki, boshlang'ich maktab nafaqat bilim beruvchi, balki axloqiy muhit yaratuvchi institutdir. Bunday muhitda o'quvchi nafaqat "nima haqida o'ylash"ni emas, balki "qanday yashash kerakligini" ham o'rganadi.

Shu huquqiy hamda siyosiy ramkalarga asoslanib, boshlang'ich ta'lim bosqichida ma'naviy-diniy qadriyatlar tizimini shakllantirishda samarali pedagogik yondashuv ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida qaraladi. Bunda "ma'naviy-diniy qadriyatlar" atamasi O'zbekistonda diniy ekstremizmga qarshi, lekin insonparvarlik, adolat, mehribonlik, vatanparvarlik, oilaviy qadriyatlar kabi g'oyalarga asoslangan ma'naviy-ma'rifatli tarbiya tushunchasini anglatadi. Bu tushuncha an'anaviy diniy dog'malar emas, balki umuminsoniy axloqiy tamoyillar hamda milliy ruhiy meros bilan bog'langan tizimdir. Boshlang'ich ta'lim bosqichida bunday qadriyatlar shaxsning axloqiy yo'nalishini belgilaydi, ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantiradi va milliy ongni mustahkamlashga xizmat qiladi. Masalan, "Ro'za tutish" haqida gapirilganda, uning sog'liqqa foydalari, insonni nafsini idora qilishga o'rgatishi kabi ilmiy hamda axloqiy jihatlari alohida ta'kidlanishi kerak. Bu esa diniy bilimlarni sekulyar ta'lim kontekstida yetkazish imkonini beradi.

Mazkur jarayonni amalga oshirishda hal qiluvchi rol pedagogik yondashuvga tegishlidir. Chunki oddiy diniy bilim berish emas, balki ma'naviy-diniy qadriyatlar tizimini integratsiyalashgan, shaxsga yo'naltirilgan, faol ishtirokka asoslangan tarzda shakllantirish zamon talabi bo'lib qoldi. Pedagogik yondashuv bu ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish, amalga oshirish va

baholashda qo'llaniladigan tamoyillar, usullar, strategiyalar majmuasidir. Ma'naviy-diniy qadriyatlar sohasida ayniqsa shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan hamda integrativ yondashuvlar ahamiyatli hisoblanadi. Har bir o'quvchining oilaviy muhiti, diniy-ma'naviy fon, shaxsiy qiziqishlari turlicha bo'ladi. Shu sababli pedagog individual yondashuvni qo'llashi kerak. Masalan, bir bola oilasida namoz o'qishni kuzatgan bo'lsa, boshqasi kitob o'qish an'anasiga ega bo'lishi mumkin. O'qituvchi shu farqlarni inobatga olgan holda, har bir bola uchun mos yo'l tanlashi lozim. Qadriyatlar nafaqat so'z orqali, balki amaliy faoliyat orqali ham singdiriladi. "Yaxshi ish kunlari", rolli o'yinlar, ijtimoiy loyihalar kabi usullar bolani faol ishtirokchiga, nafaqat passiv tinglovchiga aylantiradi. Bundan tashqari, ma'naviy-diniy qadriyatlar alohida fan sifatida emas, balki barcha fanlar bilan integratsiyalangan holda o'qitilishi kerak. Masalan, "Ona tili" fanida A.Qodiriy, E.Vohidov she'rlarida mehribonlik, vatanparvarlik mavzulari; "Tabiatshunoslik"da tabiatni asrash Xudoning yaratgan dunyoga hurmat sifatida talqin qilinishi; "Tarix" fanida Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi tarixiy shaxslarning insonparvarlik jihatlari ta'kidlanishi orqali qadriyatlar hayotiy kontekstda, abstrakt emas, balki tushunarli va yaqin tarzda yetkaziladi.

Biroq, barcha bu yondashuvlarni amalga oshirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlarini hisobga olmasdan samara kutish qiyin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 6–10 yoshdagi bolalar his-tuyg'ular orqali dunyoni idrok etadi, katta shaxslarga (ota-ona, o'qituvchi) taqlid qilishga moyildir va abstrakt tushunchalarni emas, balki aniq misollar, hikoyalar, rasmlar orqali tushunadi. Shu jihatdan hikoya-usuli, ko'rgazmali qurollar, musiqiy ta'sir kabi metodik vositalar samarali hisoblanadi. Ayniqsa, o'qituvchining shaxsiy namunasi so'z va ishlaridagi axloqiy barqarorlik eng kuchli ta'sir vositasi hisoblanadi. Shuningdek, psixologik barqarorlik ham ma'naviy tarbiyaning asosiy sharti hisoblanadi. Bolada doimiy stress, qo'rqinch yoki noaniqlik hissi bo'lsa, uning axloqiy qadriyatlar tizimi noto'g'ri shakllanishi ehtimoli bor. Shu sababli, maktabda psixologik xavfsiz muhit yaratish ma'naviy tarbiyaning ajralmas qismidir.

Касбий-амалий масалаларни ечиш орқали эса талабаларда креатив ёндошувларга хос бўлган амалий билимлар ривожлантирилади. Мазкур топшириқларни бажариш билимларни базавий даражада ўзлаштиришни талаб этади, мазмунли хотиранинг ривожланишига кўмаклашади ва далилий материални ўзлаштирилишини таъминлайди. Бунда талабаларда мантиқий фикрлаш ривожланади, асосли билимларни ностандарт вазиятда қўллаш малакалари шаклланади. Касбий компетентликни риволантириш жараёнини фундаменталлаштириш принципини амалга ошириш мақсадида биз ўқитишда масалали ёндашув асосида ўқитиш аҳамиятли эканлигини такидлаб, ўқитишда касбий-амалий мазмундаги масалалардан фойдаланишни таклиф этамиз.

Адабиётлар:

1. Алимов Б.Н. Компетенциявий ёндашув – ўқувчиларнинг математик саводхонлиги ва маданиятини ошириш воситаси сифатида. // «Узлуксиз таълим» илмий-услубий журнали. № 1. 2015. – 128 б.
2. Алихонов С. Математика ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2011. – 354 б.
3. Турдиев Н.Ш. Масалалар ечиш орқали ўқувчида таянч компетентликни шакллантириш // Узлуксиз таълим. - 2016. - №4. - Б. 23-29
4. Колягин Ю.М. Методика преподавания математики. Общая методика. Учеб. Пособие для вузов физ.-мат. фак.-тов пед. институтов / Ю.М.Колягин , В.А. Оганесян. - М: Просвещение, 1975. - 462 с.
5. M.Sh., S. (2022). MUSIQIY TA'LIM TIZIMIDAGI TARBIYAVIY YANGI G'OYALAR VA YO'RIQNOMALAR. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 183-189.
6. To'ychiyev Sherzod Shukirillayevich, H. S. (2022). SIFATLI MOMIQ OLISHDA ARRA JINING YAXSHILASH. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 138-145.
7. М.Ш., Ш. (2021). ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 197-204
8. Туйчиев Шерзод Шукириллаевич, Х. С. (2022). МОМИҚ ОЛИШ ВА ЧИГИТНИ ЎТКАЗИШ БЎЙИЧА ЛИНТЕРЛАШ ЖАРАЁНИИНГ ИШ УНУМДОРЛИГИНИ ОШИРИШ. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 146-156.





Qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlashning fuqarolik jamiyatini qurishdagi o'rni

Yaxshiliqov O'rol Umarqul o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti
yaxshiliqovorolbek4@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlashning fuqarolik jamiyatini qurishdagi o'rni ilmiy-tahliliy jihatdan o'rganilgan. Tadqiqotda qonun ustuvorligi va huquqiy tartibot fuqarolik institutlarining samarali faoliyati, jamoatchilik nazorati va demokratik boshqaruvning mustahkamlanishi bilan bevosita bog'liqligi ko'rsatildi. Tadqiqot natijalari qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlash fuqarolik jamiyatining barqaror rivoji uchun zarur ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Kalit so'zlar: qonuniylik, huquqiy tartibot, fuqarolik jamiyati, Taraqqiyot strategiyasi, jamoatchilik nazorati.

Abstract: This article examines the role of legality and the rule of law in building a civil society from a scientific-analytical perspective. The study demonstrates that the supremacy of law and legal order is directly linked to the effective functioning of civil institutions, public oversight, and the consolidation of democratic governance. The findings confirm that ensuring legality and legal order is essential for the stable development of civil society.

Keywords: legality, legal order, civil society, Development Strategy, public oversight.

KIRISH. Hozirgi davrda demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish masalasi jahon hamjamiyatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Akademik Akmal Saidov ta'kidlaganidek: Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi qonun ustuvorligi hamda huquqiy tartibotning mustahkamligiga bevosita bog'liqdir[3]. Fuqarolik jamiyati shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlovchi muhim institutlar majmuasidan iborat bo'lib, uning samarali faoliyati qonuniylik va huquqiy tartibotning mustahkamligiga bevosita bog'liqdir. Qonuniylik jamiyatda huquq normalarining ustuvorligi, barcha subyektlarning qonun oldida tengligi va davlat hokimiyati faoliyatining huquqiy asosda olib borilishini anglatadi. Huquqiy tartibot esa qonunlarning amalga bajarilishi, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish tizimini ifodalaydi. Mazkur tushunchalar fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini tashkil etadi. Huquqiy davlat sharoitida qonuniylik davlat hokimiyati faoliyatining asosiy tamoyili sifatida namoyon bo'ladi[4]. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar, xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida qonun ustuvorligini ta'minlash va

jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan[2]. Shu bois mazkur mavzuni ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Qonuniylik va huquqiy tartibot masalalari huquqshunos olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, A.X. Saidov, H.B. Boboyev, Sh.X. Raxmonqulov kabi olimlar huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni nazariy jihatdan asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlarida qonun ustuvorligi fuqarolik institutlarining erkin faoliyat yuritishi uchun zarur shart ekanligi ta'kidlanadi. I.A. Karimov o'z asarlarida qonun ustuvorligini demokratik jamiyatning poydevori sifatida talqin qilib, fuqarolik jamiyatining barqaror rivoji bevosita qonuniylik tamoyilining amalda ta'minlanishiga bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, qonunlar faqat qabul qilinishi bilan emas, balki ularning real hayotda ijro etilishi bilan ahamiyat kasb etadi. Sh.M. Mirziyoyev (2022) tomonidan ilgari surilgan konseptual yondashuvlarda esa "inson – jamiyat – davlat" tamoyili asosida huquqiy tartibotni ta'minlash masalasi yoritilgan[2]. Tadqiqotlarda sud-huquq tizimini isloh qilish, jamoatchilik nazoratini kengaytirish va davlat boshqaruvida ochiqlikni ta'minlash fuqarolik jamiyatining muhim shartlari sifatida baholanadi.

Xorijiy olimlar — J. Rawls, G. Sartori, C. Tilly asarlarida qonun ustuvorligi adolatli jamiyat va demokratiyaning ajralmas elementi sifatida talqin qilinadi. Ularning ilmiy qarashlarida huquqiy tartibot jamiyatda ijtimoiy tenglik, ishonch va siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, xorijiy olimlar tomonidan ham fuqarolik jamiyatining rivoji hokimiyatlar bo'linishi va qonuniylik tamoyiliga asoslanishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan[9]. J. Lokk, Sh. Monteske, A. de Tokvil asarlarida ham fuqarolik jamiyatining rivoji qonuniylik va hokimiyatlar bo'linishi tamoyiliga bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslangan[10]. Zamonaviy tadqiqotlarda esa huquqiy tartibotning inson huquqlarini himoya qilishdagi roli alohida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda qonuniylik va huquqiy tartibotning aynan zamonaviy O'zbekiston sharoitidagi fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi o'rni yetarlicha kompleks tahlil qilinmagan. Mazkur maqola ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Metodlar. Mazkur tadqiqotda ilmiy izlanishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Xususan, qonuniylik va huquqiy tartibotning fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o'rnini o'rganishda tahliliy, qiyosiy-huquqiy, tizimli va mantiqiy metodlar qo'llanildi.

Tahliliy metod orqali qonuniylik va huquqiy tartibot tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib berildi hamda ularning fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro aloqasi tahlil qilindi. Qiyosiy-huquqiy metod yordamida milliy va xorijiy ilmiy yondashuvlar solishtirilib, umumiy va farqli jihatlar aniqlashtirildi.

Tizimli yondashuv metodi asosida qonuniylik, huquqiy tartibot va fuqarolik jamiyati yagona ijtimoiy-huquqiy tizim sifatida ko'rib chiqildi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi hamda

tegishli qonunlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlash maqsadida induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi hamda mualliflik xulosalari umumlashtirildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlash fuqarolik jamiyatini shakllantirishda hal qiluvchi omillardan biri ekanini ko'rsatdi. O'rganilgan normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy manbalar va amaliy tajriba tahlili shuni tasdiqlaydiki, qonun ustuvorligi jamiyatda fuqarolarning huquq va erkinliklarini real himoya qilishga xizmat qiladi hamda ijtimoiy faollikni oshiradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, huquqiy tartibotning mustahkamlanishi fuqarolik jamiyati institutlari — nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik nazorati mexanizmlarining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Qonuniylik darajasi yuqori bo'lgan muhitda fuqarolar davlat organlari faoliyatiga nisbatan ishonch bildiradi va ijtimoiy tashabbuslarda faol ishtirok etadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, sud-huquq tizimining mustaqilligi va ochiqligi fuqarolik jamiyati rivojining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Sudlarning xolis faoliyati fuqarolarning qonun oldida tengligini ta'minlab, huquqiy adolatni qaror toptiradi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va huquqiy madaniyatning yuksalishiga olib keladi. Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida jamoatchilik nazoratining huquqiy mexanizmlari kengaygani aniqlandi. Davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligi oshib, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki sezilarli darajada faollashdi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari qonuniylik va huquqiy tartibotning ta'minlanishi fuqarolik jamiyatining barqaror rivoji, demokratik boshqaruv va ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim omil ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlash fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda asosiy tizimli omil ekanini ko'rsatdi. Olingan natijalar mavjud ilmiy qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilinganda, milliy va xorijiy tadqiqotlar xulosalari bilan muvofiq kelishi aniqlandi. Xususan, huquqiy davlat konsepsiyasida qonun ustuvorligi fuqarolik jamiyatining poydevori sifatida talqin qilinishi mazkur tadqiqot natijalari bilan tasdiqlandi.

Tadqiqot davomida aniqlangan holatlar I.A. Karimov va Sh.M. Mirziyoyev asarlarida ilgari surilgan g'oyalar bilan uyg'unlikda ekanligi kuzatildi. Ularning ilmiy-siyosiy qarashlarida qonuniylikni ta'minlash fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda davlat boshqaruvida ochiqlikni ta'minlashning muhim sharti sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalari mazkur yondashuvlarning amaliy asosga ega ekanini ko'rsatdi.

Xorijiy olimlar — J. Rawls, G. Sartori va C. Tilly tadqiqotlarida qonun ustuvorligi adolatli va demokratik jamiyatning ajralmas elementi sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot natijalari ham huquqiy tartibot mavjud bo'lmagan jamiyatda fuqarolik institutlari to'laqonli faoliyat yurita olmasligini tasdiqladi. Bu holat qonuniylik va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni yana bir bor isbotlaydi. Shu bilan birga, tadqiqot ayrim muammoli jihatlarni ham aniqladi.

Jumladan, huquqiy madaniyatning yetarli darajada shakllanmaganligi, ayrim hududlarda jamoatchilik nazorati mexanizmlarining sust ishlashi fuqarolik jamiyati rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa qonuniylikni faqat normativ-huquqiy hujjatlar bilan emas, balki huquqiy ong va huquqiy ta'lim orqali mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Natijalarni muhokama qilish jarayonida shuni ta'kidlash mumkinki, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi ushbu muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi[12]. Xususan, sud-huquq tizimini isloh qilish, korrupsiyaga qarshi kurash va jamoatchilik nazoratini kengaytirish fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning samarali vositalari sifatida baholanishi mumkin[11]. Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlash fuqarolik jamiyatini qurishning muhim sharti ekanini tasdiqlab, ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarni ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlashning fuqarolik jamiyatini qurishdagi o'rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari qonun ustuvorligi fuqarolik jamiyatining shakllanishi va barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Qonuniylik tamoyilining real hayotda ta'minlanishi fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni qaror toptirish hamda jamiyatda ishonch muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida huquqiy tartibotning mustahkamlanishi fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining samaradorligini oshirishi aniqlandi. Sud-huquq tizimining mustaqilligi, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va jamoatchilik nazoratining kengayishi fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini faollashtiradi. Bu esa demokratik boshqaruv mexanizmlarining amalda ishlashini ta'minlaydi. Umuman olganda, tadqiqot xulosalari qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlash fuqarolik jamiyatini qurishning muhim sharti ekanini tasdiqlaydi hamda ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik nashriyoti.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonda rivojlantirish strategiyasi to'g'risida (PF–60-son Farmon). Toshkent.
3. Saidov, A. X. (2019). Inson huquqlari va fuqarolik jamiyati. Toshkent: Adolat.
4. Boboyev, H. B. (2020). Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent: TDYU nashriyoti.
5. Raxmonqulov, Sh. X. (2018). Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslari. Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti.
6. Ismoilov, B. (2020). Qonuniylikni ta'minlashda jamoatchilik nazoratining o'rni. Yuridik fanlar axborotnomasi, (4), 45–49.
7. Saidov, A. X. (2021). Fuqarolik jamiyati va qonun ustuvorligi masalalari. Huquq va burch, (3), 12–16.
8. Locke, J. (1988). Two Treatises of Government. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Montesquieu, C. (1998). The Spirit of the Laws. Oxford: Oxford University Press.
10. Tocqueville, A. (2000). Democracy in America. New York: Harper & Row.
11. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. (2024). <https://www.lex.uz>



Ona tili ta'limi orqali vatanga sodiq shaxsni shakllantirishning pedagogik asoslari

Nilufaroy Axmadjonova

Andijon davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarda vatanga sodiqlikni shakllantirishning pedagogik va metodik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tahliliy yondashuv, pedagogik kuzatuv va metodik umumlashtirish usullari qo'llanib, mazmunan boy matnlar va kompetensiyaviy topshiriqlar orqali o'quvchilarning nutqiy hamda fuqarolik kompetensiyalarini samarali rivojlantirish imkoniyati ko'rsatildi. Shuningdek, til ta'limi shaxsiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim pedagogik omil ekanligi tasdiqlandi.

Kalit so'zlar: ona tili, ta'lim, fikrlash, kompetensiya

Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa – jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan, milliy qadriyatlarga sodiq va fuqarolik mas'uliyatini chuqur anglaydigan shaxsni tarbiyalashdir. Vatanga sodiqlik tushunchasi nafaqat hissiy munosabat, balki ongli, barqaror va ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan sifat sifatida talqin etilishi zarur [1]. Bu vazifani amalga oshirishda ona tili ta'limi muhim vosita bo'lib, u nafaqat milliy tafakkur va madaniy merosni o'quvchiga yetkazadi, balki shaxsning ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda ham yetakchi rol o'ynaydi. Shu bois ona tili darslarining faqat grammatik bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, tarbiyaviy vazifalarni ham bajarishi dolzarb pedagogik masala sifatida namoyon bo'ladi [2].

Chunki vatanga sodiqlik pedagogik nuqtai nazardan shaxsning o'z yurti taqdiri bilan daxldorlik hissini anglab yetishi, milliy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi va jamiyat oldidagi burchlarini ongli ravishda ado etishidan iborat bo'lib, bu sifat faqat bilim berish emas, balki his-tuyg'u va amaliy faoliyat orqali shakllanadi [3].

Shu sababli ta'lim jarayonida vatanga sodiqlikni rivojlantirish biryoqlama targ'ibot orqali emas, balki fikrlash, tahlil qilish va xulosaga kelishga yo'naltirilgan didaktik mexanizmlar orqali amalga oshirilishi zarur. Ona tili ta'limi ana shunday imkoniyatlarni taqdim etuvchi fanlar sirasiga kiradi.

Kompetensiyaviy yondashuv ona tili darslarida bilimni tayyor shaklda berishdan ko'ra, o'quvchining mustaqil fikrlashi va nutqiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Vatanga sodiqlik mavzusi lingvistik maqsadlar bilan uzviy bog'langan holda o'rganiladi [4]. Masalan, matn ustida ishlash jarayonida o'quvchi faqat leksik va grammatik birliklarni aniqlabgina qolmay, balki matn mazmunidagi g'oyaviy yo'nalishni ham anglaydi. Natijada til birliklari orqali milliy va ijtimoiy mazmun o'zlashtiriladi, bu esa shaxsning dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. 7-sinf ona tili darslarida "Vatan –muqaddas tushuncha"

mavzusidagi matn bilan ishlash o'quvchilarda leksik va nutqiy kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan samarali metodik vositalardan biridir. Matnlar milliy qadriyatlar, vatanparvarlik g'oyalari va ijtimoiy mas'uliyatni aks ettiradi.

1. Matndan vatanga oid so'z va iboralarni aniqlash: "Vatan", "Yurt", "Ona zamin", "Muqaddas maskan", "El-yurt taqdiri", "Milliy burch".
2. Leksik birliklarning lug'aviy va kontekstual ma'nolarini tahlil qilish: "Vatan" va "Ona zamin" birliklarining sinonimligi va hissiy-ekspressiv ifodalari.
3. Bog'lanishli gaplar tuzish: "Vatan –har bir inson uchun eng muqaddas va bebaho ne'matdir", "Ona zaminni asrash har bir fuqaroning muqaddas burchidir".
4. Qisqa matnlar yaratish orqali izchil fikrlash va nutqiy mustaqillik kompetensiyalarini rivojlantirish.

Bunday mashqlar lug'at boyligini oshirish, matn mazmunini chuqur anglash va nutqiy faollikni mustahkamlashga xizmat qiladi [5].

9-sinfda "Ona tiliga munosabat –vatanparvarlik mezonlari" mavzusida bahs-munozara tashkil etish o'quvchilarning nutqiy, mantiqiy va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

1. "Ona tiliga hurmat –vatanparvarlikning asosiy ko'rinishimi?"
2. "Tilni asrash fuqarolik burchi sifatida qanday namoyon bo'ladi?"

O'quvchilar adabiy matnlar, tarixiy manbalar va shaxsiy kuzatuvlarga tayangan holda dalillar keltiradi. Masalan, Alisher Navoiy asarlaridan iqtiboslar keltirib, ona tilining milliy o'zlikni saqlashdagi o'rni tushuntiriladi. Bahs jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlash va mantiqiy izchillikni rivojlantiradi hamda fuqarolik p ozitsiyasini mustahkamlaydi [6].

Ona tili darslarining tarbiyaviy samaradorligi o'qituvchining shaxsiy va kasbiy kompetensiyasiga bog'liq. U nafaqat bilim beruvchi, balki ma'naviy yo'naltiruvchi sifatida faoliyat yuritadi. Nutq madaniyati, metod tanlovi va baholash mezonlari o'quvchilarda vatanga sodiqlikni shakllantiradi [7].

Xulosa. Ona tili ta'limi vatanga sodiq shaxsni tarbiyalashda muhim pedagogik resurs hisoblanadi. Kompetensiyaviy va qiymatga yo'naltirilgan yondashuv orqali o'quvchilarning nutqiy, fuqarolik va ma'naviy sifatlarini samarali rivojlantirish mumkin. Ushbu natijalar ona tili fanining tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytirish zaruratini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib. Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Yo'ldoshev J. Pedagogika asoslari. Toshkent: Fan, 2020.
3. Jo'rayev R. Ona tili ta'limida tarbiyaviy yondashuvlar // Pedagogik tadqiqotlar, 2021, №2, 41–46-b.
4. Karimov O. Pedagogik kompetensiyalar va ularning rivojlanishi. Toshkent: Fan, 2019.
5. Alimova N. Ona tili darslarida kompetensiyaviy yondashuv. Toshkent: Ma'naviyat, 2020.
6. Tursunov D. Nutqiy va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi. Toshkent: Ilm-Ziyo, 2021.
7. Nazarova S. Ta'lim va tarbiya muvozanati: ona tili misolida. Pedagogik ilmiy ishlanmalar, 2022, №3, 12–18-b.



Endometrioz: Kelib chiqish sabablari, klinik belgilari va davolash usullari

Tursunova Madinabonu Rustamjon qizi

Tibbiyot fakulteti, Davolash ishi ta'lim yo'nalishi

2-bosqich DI-24-09-guruh talabasi, yoqutoybotirova1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada endometrioz kasalligining sabablari, simptomlari, diagnostikasi va davolashdagi zamonaviy usullar tahlil qilinadi. Endometrioz surunkali va keng tarqalgan ginekologik kasallik bo'lib, ayollarda og'riq va bepustlikka sabab bo'lishi mumkin. Maqolada dori-darmonli terapiya, jarrohlik va yangi innovatsion usullar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Endometrioz, gormonal terapiya, laparaskopiya, pelvik og'riq, bepustlik, GnRH analoglari.

Kirish. Endometrioz – ayollar orasida keng tarqalgan va ko'p hollarda hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ginekologik kasallik. U endometriyal to'qima bachadon ich qavatidan tashqarida joylashishi bilan xarakterlanadi. Kasallik og'riq, hayz buzilishlari va reproduktiv muammolarga olib keladi. Zamonaviy davolash usullari, kasallik oqimini kamaytirish va asoratlarni oldini olishga qaratilgan.

Asosiy qism. Endometriozning aniq sabablari hozircha to'liq aniqlanmagan, ammo asosiy nazariyalar mavjud: retrograd hayz (hayz qonining bachadon tashqarisiga oqishi), immun tizimining yetishmovchiligi, genetik omillar va atrof-muhit ta'siri. Endometriyal to'qimalar bachadon ichki qatlamidan tashqari joylarda (tug'ruq yo'llari, tuxumdonlar, periton yuzasi) o'sib, yallig'lanish va chandiq hosil qilishga olib keladi.

Endometrioz belgilar va simptomlari

Kasallik simptomlari juda xilma-xil, lekin eng keng tarqalganlari:

- Og'riqli hayz (dismenoreya)
- Pastki qorin sohasida doimiy yoki davriy og'riq
- jinsiy aloqada noqulaylik va og'riq
- Hayz davrida va undan tashqari davrda qon ketishi
- Bepustlik yoki homilador bo'lishda qiyinchiliklar

Shuningdek, ayrim bemorlarda hech qanday simptom kuzatilmaslari mumkin.

Endometrioz diagnostikasi

Diagnostika murakkab bo'lib, quyidagi usullar qo'llaniladi:

- Ultratovush tekshiruvini – tuxumdonlardagi endometrioz kistalarini aniqlash uchun.
- Magnit-rezonans tomografiya (MRT) – chuqur joylashgan o'smalarni aniqlashda qo'llaniladi.
- Pelvik tekshirish – shifokor tomonidan qin va bachadon atrofi tekshiriladi.
- Laparaskopiya – kasallikni aniqlashning eng ishonchli va standart usuli bo'lib, bir vaqtning o'zida jarrohlik amaliyoti sifatida ham bajariladi. Bu usulda bachadon

sohasiga kichik teshiklardan maxsus asboblardan kiritilib, endometrioz fokuslari ko'riladi va tarvuz kistalari olib tashlanadi.

Zamonaviy davolash usullari

- Farmakologik terapiya

- Gormonal preparatlar: Endometriyal o'sishni va yallig'lanishni kamaytirish uchun qo'llanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- Og'iz orqali qabul qilinadigan kontratseptivlar (estrogen va progestin kombinatsiyasi)

- Progestinlar (single progesteron dori vositalari)

- GnRH (gonadotropin chiqaruvchi gormon) analoglari – estrogen darajasini sun'iy ravishda pasaytiradi, bu orqali endometrioz o'sishi to'xtatiladi.

- Danazol va boshqa androgen preparatlar o'z vaqtida qo'llanilgan, ammo hozirda kamroq ishlatiladi, chunki yon ta'sirlari ko'p.

- Og'riq qoldiruvchi dorilar (NSAID lar) – yallig'lanish va og'riqni kamaytirish uchun ishlatiladi.

- Jarrohlik usullari

Laparoskopik jarrohlik eng ko'p ma'qullangan usul bo'lib, uning afzalliklari: minimal invazivlik, tiklanish davrining qisqa bo'lishi, endometrioz fokuslarini va kistalarni samarali olib tashlash imkoniyati. Agar kasallik chuqur va ko'p joyni egallagan bo'lsa, jarrohlik bilan birga reproduktiv tizimning ba'zi qismlari ham olib tashlanishi mumkin (masalan, tuxumdon yoki bachadon). Jiddiy holatlarda gisterektomiya talab qilinishi mumkin.

- Yangi davolash yo'nalishlari

Biologik terapiya va immunomodulyatorlar (masalan, sitokinlarni bloklovchi preparatlar) tadqiqot bosqichida. Ular yallig'lanish jarayonini kamaytirishga qaratilgan. Shuningdek, reproduktiv texnologiyalar (in vitro urug'lantirish – IVF) bepushtlikni bartaraf etishda yordam beradi.

- Hayot tarzini o'zgartirish

Nutritsiya, jismoniy faollik va stressni kamaytirish ham simptomlarni kamaytirishga yordam beradi. Ayrim herbologik va komplementar terapiya usullari mavjud bo'lsa-da, ularning ilmiy asoslari yetarli emas.

Endometrioz uchun davolash rejasini tuzishda har bir bemorning simptomlari, kasallik bosqichi va ta'siri inobatga olinadi. Kompleks yondashuv – gormonal terapiya, og'riq qoldirish va zarur bo'lsa jarrohlik integratsiyasi bilan amalga oshiriladi.

Xulosa. Endometrioz surunkali va ko'p jihatdan murakkab kasallik bo'lib, davolash uchun individual va kompleks yondashuv talab etiladi. Endi mavjud zamonaviy usullar, asosan, simptomlarni yengillatish va hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan. Erta tashxis va to'g'ri davolash ayollarning reproduktiv salomatligini asrashda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A. V. Nikolayev va boshqalar, "Endometrioz: paranaliz va davolash", Tibbiyot jurnali, 2022.
2. World Health Organization (WHO), "Endometriosis: Clinical guidelines", 2023.
3. S. M. Karimova, "Ginekologiyada zamonaviy davolash usullari", Toshkent, 2021.
4. J. Brown et al., "Modern approaches to endometriosis treatment", Journal of Obstetrics and Gynecology, 2023.



RAQAMLI BANK XIZMATLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Eshquvatov Azizbek Akbar o'g'li

Qarshi Davlat Universiteti Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli bank xizmatlarining mohiyati, ularni bank-moliya tizimidagi o'рни hamda rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning bank xizmatlariga ko'rsatayotgan ta'siri, raqamli bank xizmatlarining afzalliklari va ularni joriy etish jarayonida yuzaga keladigan muammolar yoritib beriladi. Shuningdek, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish orqali moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, banklar faoliyati samaradorligini oshirish va mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari talaba va yosh tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar. Raqamli bank xizmatlari, mobil banking, internet banking, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy texnologiyalar (FinTech), onlayn to'lovlar, bank tizimi, raqamlashtirish.

Аннотация. В данной статье анализируется сущность цифровых банковских услуг, их роль в банковско-финансовой системе, а также перспективы развития. Рассматривается влияние цифровых технологий на банковские услуги, преимущества цифровых банковских сервисов и проблемы, возникающие в процессе их внедрения. Особое внимание уделяется вопросам расширения финансовой инклюзии, повышения эффективности деятельности банков и улучшения качества обслуживания клиентов за счёт развития цифровых банковских услуг. Результаты исследования имеют практическую значимость для студентов и молодых исследователей.

Ключевые слова: цифровые банковские услуги, мобильный банкинг, интернет-банкинг, цифровая экономика, финансовые технологии (FinTech), онлайн-платежи, банковская система, цифровизация.

Abstract. This article analyzes the essence of digital banking services, their role in the banking and financial system, and prospects for their development. The impact of digital technologies on banking services, the advantages of digital banking services, and the challenges arising during their implementation are examined. Special attention is given to expanding financial inclusion, increasing the efficiency of banking operations, and improving the quality of customer service through the development of digital banking services. The research results have practical significance for students and young researchers.

Keywords: digital banking services, mobile banking, internet banking, digital economy, financial technologies (FinTech), online payments, banking system, digitalization.

Kirish. Bugungi kunda mobil banking, internet banking, elektron to'lov tizimlari, onlayn kredit va omonatlar bank xizmatlarining ajralmas qismiga aylangan. Ushbu xizmatlar aholining bank tizimidan foydalanish darajasini oshirib, moliyaviy inklyuziyaning kengayishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi aholi uchun raqamli bank xizmatlari bank infratuzilmasiga bo'lgan ehtiyojni kamaytirib, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlarining joriy etilishi banklar va mijozlar o'rtasidagi munosabatlarning tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. An'anaviy bank xizmatlarida ko'p vaqt va hujjat talab qilinadigan jarayonlar hozirgi kunda bir necha daqiqa ichida onlayn shaklda amalga oshirilmoqda. Bu holat tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, biznes jarayonlarini tezlashtirish va investitsiya muhitini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotida pul mablag'lari aylanishining tezlashishiga, naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushining oshishiga va yashirin iqtisodiyot hajmining qisqarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, raqamlashtirish bank tizimining shaffoqligini ta'minlab, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan raqamli iqtisodiyotga o'tish siyosati doirasida bank tizimini modernizatsiya qilish va raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu sababli, raqamli bank xizmatlarining hozirgi holatini tahlil qilish, ularning rivojlanish istiqbollari aniqlash hamda mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish bugungi kunda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi raqamli bank xizmatlarining iqtisodiyotdagi o'rnini ochib berish, ularning afzalliklari va rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Raqamli bank xizmatlari va ularning rivojlanish istiqbollari masalasi xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganib kelinmoqda. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarda asosan bank tizimini raqamlashtirish, moliyaviy texnologiyalar (FinTech), raqamli iqtisodiyot va bank xizmatlari samaradorligi masalalariga e'tibor qaratilgan. Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda raqamli bank xizmatlari banklar raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omil sifatida talqin etiladi. Jumladan, J. Schumpeter va J. Stiglitzlarning ilmiy ishlarida moliya tizimidagi innovatsiyalar iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi muhim mexanizm ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, C. Skinner, P. Gomber va B. King kabi zamonaviy tadqiqotchilar o'z ishlarida raqamli bank va FinTech kompaniyalarining bank xizmatlari modelini tubdan o'zgartirayotganini ta'kidlaydilar. Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda raqamli bank xizmatlari banklar raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omil sifatida talqin etiladi. Jumladan, J. Schumpeter va J. Stiglitzlarning ilmiy ishlarida moliya tizimidagi innovatsiyalar iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi muhim mexanizm ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, C. Skinner, P. Gomber va B. King kabi zamonaviy tadqiqotchilar o'z

ishlarida raqamli bank va FinTech kompaniyalarining bank xizmatlari modelini tubdan o'zgartirayotganini ta'kidlaydilar

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda, xususan, O'zbekistonlik olimlar tomonidan chop etilgan ilmiy maqolalarda bank tizimini raqamlashtirishning milliy iqtisodiyot rivojiga ta'siri tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Tijorat banklari faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotlarda raqamli bank xizmatlarini joriy etish bank xizmatlari sifatini oshirishi, mijozlar sonini ko'paytirishi hamda bank operatsion xarajatlarini kamaytirishi qayd etilgan. Shuningdek, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida e'lon qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va tahliliy materiallarda bank tizimini raqamli transformatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda raqamli bank xizmatlarining rivojlanish istiqbollari o'rganishda umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv asosida bank tizimini raqamlashtirish jarayonlari kompleks tarzda tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. So'nggi yillarda bank tizimida raqamli xizmatlarning jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Xususan, mobil banking va internet banking xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining ortishi bank operatsiyalarining sezilarli darajada raqamli muhitga ko'chganini tasdiqlaydi. Bu holat bank filiallariga bo'lgan yuklamaning kamayishiga hamda xizmat ko'rsatish tezligining oshishiga olib kelmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, raqamli bank xizmatlarining keng joriy etilishi banklarning operatsion samaradorligini oshirmoqda. An'anaviy bank xizmatlariga nisbatan raqamli xizmatlar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar banklar uchun kamroq xarajat talab qiladi. Natijada banklarning xizmat ko'rsatish tannarxi pasayib, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi oshmoqda. Shu bilan birga, mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va tezkorligi ham sezilarli darajada yaxshilanmoqda. Natijalar muhokamasi shuni ko'rsatadiki, raqamli bank xizmatlari moliyaviy inklyuziyani kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, masofaviy hududlarda yashovchi aholi va kichik biznes subyektlari uchun bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Onlayn kreditlash va raqamli to'lov tizimlari tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlab, iqtisodiy faollikning oshishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, tahlil jarayonida ayrim muammolar ham aniqlandi. Xususan, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi bilan bir qatorda kiberxavfsizlikka bo'lgan tahdidlar kuchaymoqda. Ayrim mijozlarning raqamli savodxonligi yetarli darajada emasligi esa firibgarlik holatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa banklar tomonidan axborot xavfsizligini ta'minlash va mijozlar o'rtasida tushuntirish ishlarini kuchaytirishni talab etadi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli bank xizmatlarini yanada rivojlantirish uchun bank infratuzilmasini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va normativ-huquqiy bazani mustahkamlash zarur. Shuningdek, raqamli bank xizmatlarining barqaror rivojlanishi aholining moliyaviy savodxonligi darajasiga bevosita bog'liq bo'lib, bu yo'nalishda tizimli choralar ko'rish muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, tahlillar va natijalar muhokamasi raqamli bank xizmatlarining bank tizimi samaradorligini oshirish, mijozlar ehtiyojlarini qondirish va iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mavjud muammolarni bartaraf etish orqali raqamli bank xizmatlarining kelajakdagi rivojlanish istiqbollari yanada kengayishi mumkin.

Bank tizimida raqamli transformatsiya jarayoni bir nechta o'zaro bog'liq mexanizmlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmlar bank faoliyatini samarali boshqarish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, huquqiy muhitni shakllantirish hamda mijozlar ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Tashkiliy mexanizm sxemaning yuqori va markaziy qismida joylashgan bo'lib, banklarda raqamli transformatsiyani boshqarishda asosiy rol ni bajaradi. Ushbu mexanizm raqamli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va xodimlarning raqamli ko'nikmalarini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Tashkiliy mexanizm boshqa barcha mexanizmlarning samarali ishlashini muvofiqlashtiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi markaziy bo'g'in hisoblanadi.

Texnologik mexanizm bank faoliyatida raqamli yechimlarni joriy etish bilan bog'liq bo'lib, mobil va internet banking platformalari, sun'iy intellekt (AI), blokcheyn texnologiyalari hamda biometrik autentifikatsiya vositalarini qamrab oladi. Ushbu mexanizm bank xizmatlarini tezkor, qulay va xavfsiz shaklda amalga oshirish imkonini beradi hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini sezilarli darajada oshiradi. Institutsional mexanizm raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan huquqiy va tashkiliy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. U normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, davlat dasturlarini amalga oshirish hamda Markaziy bank tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash choralari ni o'z ichiga oladi. Natijada bank tizimida raqamli faoliyatni amalga oshirish uchun barqaror va ishonchli institutsional muhit yaratiladi.

Iqtisodiy mexanizm banklar uchun raqamli texnologiyalarni joriy etishni moliyaviy jihatdan rag'batlantiradi. U bank xarajatlarini kamaytirish, yangi daromad manbalarini shakllantirish hamda kichik biznes va aholi qatlamlariga moliyaviy xizmatlarni kengaytirish orqali namoyon bo'ladi. Mazkur mexanizm raqamli bank xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy mexanizm aholining raqamli va moliyaviy savodxonligini oshirish, mijozlar ishonchini mustahkamlash hamda masofaviy va kam rivojlangan hududlarda bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Ushbu mexanizm raqamli bank xizmatlarining ommalashuvi va inklyuzivligini ta'minlaydi. Xavfsizlik mexanizmi raqamli bank xizmatlarining barqaror faoliyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. U kiberxavfsizlik choralari ni kuchaytirish, ma'lumotlarni himoya qilish va moliyaviy firibgarlik holatlarining oldini olishni qamrab oladi. Ushbu mexanizm mijozlar ma'lumotlarining daxlsizligini saqlash va bank tizimiga bo'lgan ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Raqamli bank xizmatlari bugungi kunda bank tizimining samaradorligini oshirish, mijozlarga qulaylik yaratish va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shishda muhim vosita hisoblanadi. Mobil banking, internet

banking, elektron to'lovlar, onlayn kredit va raqamli omonatlar kabi xizmatlar bank operatsiyalarini tez, xavfsiz va qulay amalga oshirish imkonini beradi hamda moliyaviy inklyuziyani kengaytiradi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli bank xizmatlarining joriy etilishi banklarning operatsion xarajatlarini kamaytirib, xizmatlar sifatini oshiradi va mijozlar ishonchini kuchaytiradi. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik tahdidlari, mijozlarning raqamli savodxonligi pastligi va normativ-huquqiy bazaning yetarli emasligi rivojlanishdagi asosiy muammolar sifatida qolmoqda. Rivojlanish mexanizmlari – tashkiliy, texnologik, institutsional, iqtisodiy, ijtimoiy va xavfsizlik mexanizmlari – birgalikda ishlaganda raqamli bank xizmatlarining barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlaydi. Shu asosda quyidagi takliflar ishlab chiqildi: banklarda raqamli strategiyalarni kuchaytirish, texnologik infratuzilmani rivojlantirish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, aholining moliyaviy va raqamli savodxonligini oshirish, kiberxavfsizlikni mustahkamlash va masofaviy hududlarda xizmatlarni kengaytirish. Ushbu choralar raqamli bank xizmatlarining yanada ommalashuvi va iqtisodiyotdagi rolining oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimini rivojlantirish va raqamlashtirish bo'yicha hisobotlar (so'nggi yillik).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" Davlat dasturi. Toshkent, 2020.
3. Schumpeter, J. Capitalism, Socialism and Democracy. Harper & Brothers, 1942.
4. Stiglitz, J. Economics of the Public Sector. W.W. Norton & Company, 2015.
5. Gomber, P., Kauffman, R., Parker, C., & Weber, B. On the FinTech Revolution: Interpreting the Forces of Innovation in Financial Services. Journal of Management Information Systems, 2018.
6. Jahon banki. Digital Financial Services and Inclusion: Global Insights. Washington, D.C., 2019.
7. Skinner, C. Digital Banking: Trends, Risks, and Opportunities. Financial Times Press, 2021.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil qarorlari va normativ-huquqiy hujjatlari (raqamli to'lov va bank xizmatlari sohasida).

MUNDARIJA | TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ

1.	YUZ-JAG' TRAVMALARIDAN KEYINGI ASORATLAR: TISH, JAG' NEKROZI VA PERIODONTAL JAROHLATLAR TAHLILI Ergashev Bekzod	4
2.	Ildiz kanali infeksiyalarining mikrobiologik spektri va ularning klinik ahamiyati: kimyoviy ishlov berish usullarining mikrobiologik samaradorligi Ergashev Bekzod	11
3.	Chingiz Aytmatov asarlarida gender tenglik Nizomova Kamola Vohid qizi	17
4.	Patterns of disease progression and risk determinants of arterial hypertension in adults aged 45–59 years. Quchqorov Shavkat, Sotvoldiyev Abdulaziz	21
5.	Economic effectiveness of implementing artificial intelligence Sh.Abdisamatov	24
6.	КОММУНИКАТИВНЫЕ НАВЫКИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТА Набиева Дилрабо Абдурауповна Усмонова Чарос Учкуневна	30
7.	THE REASONS FOR THE GROWING USE OF ELECTRONIC BOOKS INSTEAD OF PRINTED BOOKS IN THE MODERN ERA Xudoyqulova Mahina	34
8.	Использование цифровых образовательных технологий в преподавании английского языка Дильдора Курбаниязова, Зулфия Кенжебаева	39
9.	Milliy o'zlikni anglash va munavvarqori: tarixiy izlanishlar Shoxruh Baxtiyor o'g'li Temirov	43
10.	Ways to improve sustainable development strategies in the management system Tursunov Ozodbek Badalovich	51
11.	The role of human resource management in a sustainable development strategy Tursunov Ozodbek Badalovich	54
12.	Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ma'naviy-diniy qadriyatlarini shakllantirishda pedagogik yondashuvlar Otayev Umidbek Matyoqubovich	57
13.	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОНЛАЙН-ПЛАТФОРМ И МОБИЛЬНЫХ ПРИЛОЖЕНИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ Улугбек Утемуратов, Багила Сарсенбаева	61
14.	Типология художественных образов в произведениях	65

	А.П.Чехова Турсынбаева Дильфуза	
15.	Jahon va o'zbek musiqa san'ati integratsiyasida emotsional intellektning o'quv jarayonidagi roli Odilova Mushtariy Bahodir qizi	68
16.	Научно-методологические основы формирования педагогической науки в вузах. Шукириллаева Мехриноз Шерзодбек кизи	72
17.	Педагогика олий таълим муассасалари талабаларининг мутахассислик салоҳиятларини ривожлантириш Тўйчиев Шерзод Шукириллаевич	75
18.	Qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlashning fuqarolik jamiyatini qurishdagi o'rni Yaxshiliqov O'rol Umarqul o'g'li	79
19.	Ona tili ta'limi orqali vatanga sodiq shaxsni shakllantirishning pedagogik asoslari Nilufaroy Axmadjonova	83
20.	Endometrioz: Kelib chiqish sabablari, klinik belgilari va davolash usullari Tursunova Madinabonu Rustamjon qizi	85
21.	Raqamli bank xizmatlarining rivojlanish istiqbollari Eshquvatov Azizbek Akbar o'g'li	87